

M. MAXAMMETOV, SH. ATAMURADOVA

**TELEVIDENIYE
VA RADIO REJISSURASI**

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

TOSHKENT
«NISO POLIGRAF»
2017

UO‘K 654.1
KBK 76.03
M 32

Taqrizchilar:

Oripov K.O. – Respublika televideniye va kasb-hunar kolleji,
o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Raxmatullayev D. – Respublika televideniye va kasb-hunar
kolleji, maxsus fan o‘qituvchisi

Raximov M. – Respublika televideniye va kasb-hunar kolleji,
maxsus fan o‘qituvchisi

Ushbu o‘quv qo‘llanmada televideniye kashf etilishi, tarixi va nazariyasining asosiy yo‘nalishlari hamda rejissorning ishlash jarayoniga, ijodiy guruhning har birining vazifalariga, ishlash uslublariga alohida to‘xtalib o‘tilgan. O‘quv qo‘llanmada qator mavzular kino san’ati va televideniye ko‘rsatuv yaratuvchi ijodiy xodimlarga bag‘ishlangan. Qolaversa, televideniye janrlarining har biriga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma san’at sohasida mutaxassislar tayyorlaydigan kollej talabalari uchun moljallangan bo‘lib, undan televideniye va kino san’ati sohasiga qiziquvchi kitobxonlar ham foydalanishlari mumkin.

**Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.**

ISBN 978-9943-4869-0-4

© M. Maxammetov, 2017
© «NISO POLIGRAF», 2017

KIRISH

O‘zbekistonda ta’lim sohasida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi (1997-yil) ishlab chiqarishning barcha sohalari uchun yetuk va malakali kadrlar tayyorlash jarayonlariga qo‘yiladigan talablarni yanada oshirdi. Milliy dastur – kadrlar tayyorlash va ta’lim sohalaridagi davlat siyosatini amalga oshirishning strategik asosi bo‘lib, turli darajadagi yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirishga, ma’naviy boy, erkin, ijodiy va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

Kishilik hayotida televideniye va radioning o‘rni beqiyosdir. Insoniyat tarixining hamma davrlari kabi ommaviy axborot vositalari jamiyat taraqqiyotida, xususan, inson hayotida ham muhim rol o‘ynab kelmoqda. Uning qaysi bir turi bo‘lmasin – radio va televideniye, gazeta va jurnallar, internet tarmog‘isiz inson hayotini tasavvur etib bo‘lmaydi. Ommaviy axborot vositalari har vaqt, har yerda dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar haqida xabar berib turadi, insonlarning ongiga, ma’naviy dunyosiga ta’sir ko‘rsatadi.

«Televideniye va radio rejissurasi» o‘quv qo‘llanmasi san’atshunos jurnalistlar, rejissyorlar, kinoteleoperatorlar, ovoz rejissyorlari hamda barcha shu sohaga qiziquvchi mutahassislarga mo‘ljallangan.

Televideniye paydo bo‘lib, san’at sifatida shakllanganidan beri tarixan ko‘p vaqt o‘tmagan bo‘lsa-da, bu sohada talaygina

tadqiqot ishlari, ilmiy-nazariy ishlar amalga oshirildi. Bu soha zamonaviy san'at sifatida juda tez rivojlanmoqda va takomillashmoqda. Xususan, bugungi kunga kelib turli xil teleradiokanallarning tashkil etilishi, ularning aniq yo'nalishi, o'z uslubi, o'z tomoshabini mavjuddir. Qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun teleradiokanallar turli xil mavzudagi ko'rsatuvlarni va radioeshittirishlarni tayyorlashi faqatgina tomoshabin va radioeshituvchilar uchun xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, televizion texnikaning taraqqiyoti, kompyuter texnologiyasi, internet tizimlarining xonadonlarga kirib kelishi bilan birgalikda ommaviy axborot vositalarining o'rnini yuksaltirishga katta hissa qo'shmoqda. Bu esa soha mutaxassislarini tayyorlashda fanni izchillik bilan o'rganishni, unga ilmi-uslubiy yondashishni taqozo etadi.

TELEVIDENIYE SAN'ATINING PAYDO BO'LISH TARIXI

Televideniye yunoncha «tele» – uzoq, «videnie»- ko'rish so'zlaridan olingan bo'lib, uzoqlikdagi, katta masofadagi harakatni ko'rsatish va ko'rish ma'nosini anglatadi. Shuni g'urur bilan ta'kidlash joizki, O'zbekiston – televideniye vatani. 1928-yil toshkentlik Hamzaxon va Yusufxon aka Mirzamuhamedovlarning «Balandmasjid» mahallasidagi 74-uyida (keyinchalik Navoiy ko'chasi, 199-uy) ixtirochilar Boris Pavlovich Grabovskiy va Ivan Filippovich Belyanskiylar elektr nur yordamida harakat qilayotgan tasvirni bir joydan uzatadigan va boshqa joyda qabul qiladigan apparat – «telefot» ixtiro etib, uni muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazdilar.

O'zbekistonda televizion ko'rsatuvlar rasmiy ravishda 1956-yil 5-noyabrda efirga uzatila boshlandi. Shu yil «Toshkent televideniye studiyasi» tashkil etildi. Bu studiya o'z ko'rsatuvlarini 180 m balandlikdagi Toshkent televizion minorasi orqali ko'rsatdi. Ijodiy ishlar bo'yicha ilk direktor Mirsolih Mirag'zamov, texnik direktor Marziya Abdullayeva, rejissor Bobo Xo'jayev, operator Po'lat Rasulov, ilk diktorlar Iqbol Olimjonova, Yunona Stolyarova, Ra'no Madraximova edilar.

1957-yil Toshkent telestudiyasi muntazam ravishda teledasturlarni kuniga 2–2,5 soat hajmda namoyish etishni boshladi. 1958-yil birinchi marotaba KTS (ko'chma televizion stansiya) yordamida teleko'rsatuvlarni voqea sodir bo'ladigan joydan, zavod va fabrika sexlari, xo'jalik dalalari va fermalari, ilmiy laboratoriyalar va boshqa joylardan olib ko'rsatish imkoniyati yaratildi.

1959-yildan boshlab Toshkent telemarkazining ko'rsatuvlarni tarqatish doirasi kengaydi. Shu yili Samarqand shahri aholisiga, 1960-yil Buxoro, Navoiy viloyatlarining katta hududidagi aholiga ko'rsatuvlarni yetkazib berish imkoniyatlari kengaytirildi. 1961-yil Urganch shahrida (Xorazm viloyati) telemarkaz ishga tushirildi. 1962-yil O'zbekiston televideniyesining ikkinchi Respublika dasturi ish boshladi.

1962-yil Telemarkaz Respublika Aloqa vazirligi ixtiyoridan «Televideniye va radioeshittirish Davlat Komiteti» tasarrufiga o'tkazilganligi to'g'risida O'zbekiston Oliy Sovetining qarori chiqdi.

1964-yil Nukus shahrida (Qoraqalpog'iston Respublikasi) mahalliy telestudiya ish boshladi.

1965-yildan Respublika Markaziy televideniyesining 1-dasturi (ST-1) ko'rsatuvlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, O'zbekiston televideniyesi 3 ta dastur orqali teleko'rsatuvlarni tarqata boshladi. 1979-yildan O'zbekiston televideniyesi Markaziy televideniyaning 2-dasturi (ST-2) ko'rsatuvlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, jami 4 ta dastur orqali teleko'rsatuvlarni namoyish eta boshladi.

1970-yil O'zbekiston televideniyesi bazasida televizion badiiy va hujjatli filmlar hamda film-konsertlar ishlab chiqaruvchi mustaqil «O'zbektelefilm» studiyasi tashkil etildi.

1971-yil Toshkent telemarkazining texnikaviy va ijodiy imkoniyatlari yanada kengaydi. Shu yili Telemarkaz rangli tasvirda teleko'rsatuvlar tayyorlashga o'tdi.

1978-yil rangli tasvirda ko'rsatuvlarni tayyorlash va efirga uzatishga mo'ljallangan yangi televizion texnik markaz ishga tushirildi. Telemarkaz «Perspektiva» rusumidagi 3-avlod

zamonaviy studiya teleuskunalari bilan jihozlangan bo‘lib, ularning tarkibi dasturlarni videoplyonkaga yozib olish hamda ko‘rsatuvlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri efirga berish uchun sahni 300 kv. metrli va 600 kv. metrli 2 ta studiya, 2 ta apparat-studiya bloki (ASB), teledasturlarni efirga uzatish uchun apparat-programma bloklari (APB), tasvirni magnit lentasiga yozish apparatxonalari, video va ovoz yozish ko‘chma stansiyalari (KTS) bilan jamlandi.

O‘zbekiston televideniyesining imkoniyatlari 1980-yilda ishga tushgan yangi telemarkaz hamda 1985-yilda o‘rnatilgan ko‘p dasturli radiotelevizion uzatuvchi stansiya tufayli yanada oshdi. Yangi teleminoraning balandligi 375 metr bo‘lib, u Toshkent telemarkazining ko‘rsatuvlarini tarqatishni 2 barobarga oshirdi. Natijada, videosignallar sifati yaxshilanib, teleko‘rsatuvlar soni ko‘paydi. Bu davrga kelib, texnik bazani rivojlantirish uchun «Sony» firmasining televizion texnik vositalari xarid qilindi.

1990-yilga kelib respublika aholisining 98 foizi ikki programmada teleko‘rsatuvlarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Мавзу юзасидан саволлар:

1. O‘zbekiston televideniyesi ko‘rsatuvlari rasmiy ravishda nechanchi yildan efirga uzatila boshlagan?
2. Dastlab Toshkent telestudiyasi teledasturlarni kuniga necha soatdan namoyish etgan?
3. Nechanchi yilga kelib «O‘zbektelefilm» studiyasi tashkil qilingan?
4. 1985-yillar davomida qaysi firma televizion texnik vositalaridan foydalanila boshlandi?
5. Dastlabki teleijodkorlar haqida ma’lumot bering.

TELEVIDENIYENING REPRODUKTIV FUNKSIYALARI VA UNING XUSUSIYATLARI

XX asr mo'jizasi, televideniye va radioning hayotimizda tutgan o'rni beqiyos. Ommaviy axborot vositalari ichida gazeta, jurnal va boshqa axborot turlariga nisbatan juda katta mavqega ega. «To'rtinchi hokimiyat» deb nisbat berilishi bejiz emas. Televideniye va radio juda qisqa fursat ichida boshqa san'at turlariga qaraganda texnik imkoniyatlari jihatidan, ijodiy izlanishlar ko'lami jihatidan juda keng, ommaviy, tezkor va jonli san'at vositasi ekanligini namoyish etdi. Televideniye va radio hayot muammolari yechimini topishda, xalq dardini oshkora etishda, inson qalbi va tafakkurining kamol topishida yangidan yangi uslub ifoda vositalarini o'zida kashf etdi. Ming yillardan beri o'z funksiyalarini bajarib kelayotgan teatr san'atini, uning imkoniyat darajasini yanada kengaytirgan kino san'atini televideniye va radio o'zida mujassamlashtirgan holda davom ettirdi. Insoniyat tafakkurining rivojiga ijtimoiy hayotimizning taraqqiyoti darajasiga, turmush tarzimizga inqilob bo'lib kirdi. Bu siyosiy, ham mafkuraviy, ham texnik, ham ijtimoiy, ham informatsion-elektron inqilob edi. Tafakkurda inqilob bo'ldi. Televideniye va radio san'ati ishlab chiqarishning, harbiy va aloqa sohalariga, qishloq xo'jaligi va tibbiyot, ilmiy tekshirish va maorif, ma'naviy va maishiy hayot tarzimizga informatsion texnologiyani olib kirdi. Elektron va kompyuter kundalik hayotimizning uzviy bir dasturiga aylandi. Inson unga chambarchas bog'landi. O'z navbatida, elektron texnologiya yangi-yangi qirralarni namoyish qilmoqda. Televideniye va radio o'zining reproduktiv funksiyalarini ochmoqda. Biz uni ilg'ashimiz, o'rganishimiz, faoliyatimizda dasturilamal qilishimiz zarur.

Bu sohani o'rganishda qator mavzular, elektron inqilobning o'ziga xos tarixi, reproduktiv funksiyalarning boshqa san'at turlariga nisbatan tafovuti mavjud. Bu soha ham, o'z navbatida, rejissuraga bo'lgan talabni yanada kuchaytirdi.

Teatr va kinoga o'xshab televideniye ham sintetik san'at hisoblanadi. Boshqa san'at turlaridan afzalligi har yerda hozirligidir. Istagan joyda, istagan vaqtda namoyish qila oladi. Kino badiiy obrazlarni ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lsa, televideniye axborotni og'zaki yetkazish, ommaviy tadbirlarni ko'rsata olish imkoniyatiga ega. Xabarlarini saralay oladi, izohlaydi, televideniye atrof-muhitni o'rganishda, tushunishda qudratli qurol hisoblanadi. Voqea va hodisalarni shu zahoti, shu tobda sodir bo'lish vaqtida to'g'ridan to'g'ri hozirjavoblik bilan ishonarli qilib haqiqatni dalil asosida namoyish qiladi. Tomoshabin dasturlarni tanlay oladi, shaxsiy manfaatidan kelib chiqib tanlaydi, har tomonlama qulayligi bor. Teatr, kinoga bitta tomoshani ko'rish uchun, pardozu-andoz qilib borasiz. Televizion ko'rsatuvlarining yo'nalishi, manzili aniq mo'ljallangan tomoshabini bor. Jamoatchilik fikri o'rganiladi, hisobga olinadi. Tomoshabinning ma'lumot darajasiga, yoshiga, vaqtiga qarab ko'rsatuvlar dasturlanadi. Ko'rsatuvlarni tomosha qilish, idrok qilish ikki taraflama: bir kishiga va millionlab tomoshabinga mo'ljallanadi.

Boshqa san'at turlariga qaraganda televideniye birvarakayiga bir necha joydan namoyish qila oladi. Oynayi jahonda ijrochining, suxandonning shaxsi, istarasi muhim rol o'ynaydi. Kutilmagan holatlar, hujjatlilik tomoshabin ko'z oldida sodir bo'ladi. Rejissor nimani maqbul ko'rsa, tomoshabin shuni ko'radi. Kinodagi kabi teleekran ham yassi, kichik formatli, xonaga mo'ljallangan. Shuning uchun ham televideniye yirik plan san'ati hisoblanadi. Teatr,

kinoga nisbatan televizorni xonadon mezboni sifatida tomosha qila olasiz. Hozirgi kunda raqamli televideniye rivojlanganda tasvir sifatiga katta e'tibor beriladi.

Televideniye kinoga nisbatan olib ko'radigan bo'lsak, o'ziga xos reproduktiv xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Kinoda aktyorning kameraga qarashi taqiqlansa, televideniya kameraga qarashi shart, chunki tomoshabin bilan muloqotda bo'ladi.

2. Kinoda tomoshabin sodir bo'layotgan voqealarning kuzatuvchisi bo'lsa, televideniya o'sha jarayonning ishtirokchisi, jim o'tirgan qatnashchisi hisoblanadi.

3. Kinoda tomoshabin ko'lami keng, auditoriya katta, televideniya uyda, oilada sirdosh.

4. Televideniya soatlab hikoya, suhbat qurishingiz mumkin, kino uzoq suhbatga toqat qilolmaydi.

5. Kino birdaniga, shu zahoti jamoa fikrini tug'diradi, televideniya jamoa fikrini ertasiga eshitasiz.

6. Voqelik ifodasini faqat televideniya shu zahoti tomosha qilasiz, kinoda kechikib o'tgan voqealar shohidi bo'lasiz.

7. Televideniya teatr ham emas, kitob ham emas, millionlarga birvarakayiga ta'sir qilish kuchi teatrdan ham, kitobdan ham ko'p.

8. Xatti-harakat, yuz ifodasi, yirik plandagi aft ko'rinishlari xonadon ekranigagina xos.

9. Asl haqiqat va hujjatlilik faqat televideniya xos. Kundalik voqelikni shu zahoti betakror ilg'aysiz.

10. Ko'p qismlilikni, muntazamlilikni faqat televideniya ko'rish mumkin.

11. Kinoda voqelik «tozalanadi», saralanadi. Televideniya ishonarli, haqiqiy asl hujjatlilikni ko'rasiz.

12. Kinoda muhrlab qo'yish lozim bo'lsa, televideniya muhrlashdan tashqari jonlilik xos.

13. Kinozalda tanlagan filmingizni tomosha qilasis, televideniya uyda tanlab, saralab tomosha qilasis.

Televideniya kino, teatr san'atlari ifoda vositalaridan foydalanibgina qolmay, o'z imkoniyatlarini kashf qildi. Adabiy teatr, bir aktyor teatri, tok-shou, turli-tuman muloqotlar va boshqa ko'p janrdagi ko'rsatuvlar televideniya tufayli paydo bo'ldi. Ko'p seriyali filmlar, televizion filmlar, roman va qissalarning televizion adaptatsiyasi, epik asarlar, ko'p kamerali tasvirga olishlar televideniya tufayli ro'yobga chiqdi. Montaj texnikasi kinoga nisbatan yuksak darajada o'zgarib ketdi. Hech qanday kimyoviy vositalarsiz, jismoniy aralashsiz montaj usullari paydo bo'ldi. Bular, o'z navbatida, televizion rejissordan muallif, aktyor va boshqa ijodiy jamoa bilan ishlashdan tashqari yangi televizion texnologiyani o'rganishni, uning imkoniyatlaridan unumli foydalanishni vazifa qilib qo'ydi. Televizion rejissura ijodiy mahsul berishdan tashqari katta tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lish xislatlarini ko'rsatdi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Ommaviy axborot vositalari ichida yirik plan san'ati deb hisoblanuvchi san'at turi qaysi?
2. Televideniya va teatrning farqi nimalarda?
3. Televideniya va kino san'atining reproduktiv funksiyalari nimada?
4. Ommaviy axborot vositalari ichida televideniyaning afzalliklari nimada?

Mavzu yuzasidan topshiriq:

Televideniye san'atining boshqa ommaviy axborot vositalari ichida afvzalliklari va kamchiliklari haqida tahlil qilib kelish.

RADIO – OAV LARDAN BIRI SIFATIDA

Bugungi kunda inson hayotini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Butun yer yuzini qamrab olgan uning qaysi bir turi bo'lmasin, ommaviy axborot vositalari insoniyatga atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar haqida har onda xabar berib turish bilan bir qatorda ularning ma'naviy dunyosiga ta'sir ko'rsatadi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida jamiyat hayotiga radio kirib keldi. Radio (Lot. *radio* – nur tarataman, *radius* – nur) – elektromagnit radiochastota to'lqinlari orqali axborotni simsiz uzatish texnologiyasidir. Dastlabki radioto'lqinlar orqali ma'lumot uzatuvchi tizim yaratuvchisi deb, ba'zi mamlakatlarda italiyalik muhandis Guglielmo Markonini (1896), Rossiyada, «radio ixtirochi» deb A.S. Popovni (1895). AQSHda 1893-yilda patent olgan Nikola Tesla hisoblanadi. Fransiyada simsiz Telegrafiya ixtirochisi deb Eduard Branli (1890) qabul qilingan.

Radio paydo bo'lishi nuqtayi nazaridan ommaviy axborot vositalarining ichida matbuotdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Uning eng xarakterli xususiyati, axborot yetkazish jarayonida faqat ovoz orqali uzatiladi. Radioaloqa bir zumda, cheksiz masofaga ma'lumot uzatishi mumkin. Shuning uchun har bir xabar deyarli sodir bo'lgan vaqtda masofadan turib muvaffaqiyatli yetkazib berilishi samaradorligi

radioeshittirishlarga xos bo‘lib, matbuot orqali bu holatga erishish mumkin emas.

Agar dastlab radio faqat ovozli xabarlarini uzatishga ega bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik radio barcha turdagi ovoz, nutq, musiqa va shovqinlarni uzatish manbayiga aylandi. Shu nuqtayi nazardan radio orqali dunyoning to‘liq ovozli manzarasini yaratish mumkin. Radio paydo bo‘lishi bilan insonlar dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni, ijtimoiy hayot yangiliklaridan yanada tezroq xabardor bo‘la boshlashdi. Bu esa, o‘z navbatida, matbuotdan ustunlikka ega ekanligini bildiradi. Radioning paydo bo‘lishi bilan nutq madaniyati yanada rivojlandi, eshituvchilarga tovush orqali zavq yetkazilishi, madaniy hordiq beruvchi musiqa san‘ati yanada rivojlanib bordi.

Radio ommaviy axborot vositalarining og‘zaki nutqqa asoslangan turi bo‘lsa-da, u matbuot kabi ijtimoiy hayotni tatbiq etadi, aks ettiradi va unga bevosita ta‘sir o‘tkazadi. Radioning asosiy va bosh vazifasi ijtimoiy xabarni yetkazishdan iboratdir. Uning matbuotdan yana bir afzalligi kun-u tun turli eshittirishlarni uzatish imkoniga ega ekanligidir. Shuningdek, chekchiz va chegara bilmasligidir.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Radio jamiyat hayotiga qaysi asrlarda kirib kelgan?
2. Radio so‘zining lug‘aviy ma‘nosi nima?
3. Rossiya va AQSH davlatlarida radio ixtirochilari deb kimlarni hisoblashadi?
4. Radoning asosiy va bosh vazifasi nimalardan iborat?

Mavzu yuzasidan topshiriq:

Televideniye va radio san'atining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib kelish

TOSHKENT RADIOESHITTIRISH UYINING TARIXI

1895-yil 7-may kuni texnika fanlari o'qituvchisi Aleksandr Stepanovich Popov o'zi kashf etgan moslama orqali elektromagnit to'liqin tebranishlarini simsiz masofaga uzatishni namoyish etdi.

Toshkentda radiostansiya qurilish ishlari 1926-yilda boshlanib, 1927-yil 11-fevralda Toshkent shahrida Markaziy Osiyoda birinchi RA-27 rusumli radiouzatkich o'rnatilib, ishga tushirildi. Kablukova ko'chasi 10-uyda radioeshittirishlar 526 metrli o'rta to'liqinda (O'T) soat 18.00 da 6 soat davomida efirga uzatildi. Radiostansiya tarkibiga ikki studiyali radiomarkaz, ikkita translatsiya uzeli va ikkita orkestr kirdi.

Davr o'tishi bilan yanada quvvatliroq radiouzatkichlar ishlab chiqarilishi munosabati bilan 1930-yil 30-sentabrda Toshkent shahrida yangi katta quvvatli RV-11 rusumli radiouzatkich ishga tushirildi.

1930-yildan boshlab radioeshittirishlar Kuybishev ko'chasida joylashgan binoda tayyorlangan. Binoda ikkita studiya va ikkita apparatxona bor edi. Radioeshittirish apparatxonasi ishi Radiomarkaz xodimlari tomonidan yuritilgan. Ikkinchi apparatxonada ovozni yozib olish va eshittirib berish apparatlari gramstol va shorinofon joylashgan bo'lib, shorinofon ovozni mexanik usulda kinoplyonkaga

yozib olish va shu zahoti yozib olingan ovozni efirga uzatish imkonini yaratib berdi.

O'sha davrlarda efirga uzatilayotgan eshittirishlarda san'atkorlar bevosita ishtirok etardilar. Ayrim tonggi konsertlarda ishtirok etish uchun yetib kelish imkoniyati yo'qligidan, Radio binosida tunab qolishardi. Keyingi yillarda mexanik ovoz yozish texnikasida (grammofon plastinkalarda) milliy musiqiy asarlarning paydo bo'lishi bu ishlarni birmuncha yengillashtirdi. Texnikaning bosqichma-bosqich rivojlanib borishi natijasida avval shorinofon, so'ngra magnit tasmasida ishlaydigan magnitofonlar paydo bo'ldi.

1947-yil 1-sentabrdan respublikamiz radiosi 3 ta tilda 15 daqiqadan chet ellardagi radio eshituvchilar uchun eshittirishlarni boshlagan.

1947-yil kattagina 2 qavatli restoran binosi bo'shatilib, ta'mirlandi va qayta jihozlandi. Radio uyida 120 kv. m dan iborat katta konsert studiyasi, 80 kv. m dan iborat kichkina studiya, 60 kv. m dan iborat kamer studiyasi va nutq studiyalari jihozlandi.

Ushbu davrda Radio uyi Aloqa vazirligiga qarashli edi, ovozni yozib olish va uni eshittirib berish bilan esa Komitetning texnik bo'limi shug'ullanar edi. 1958-yilning o'rtasida hukumat qaroriga ko'ra Radio uyi Aloqa vazirligidan Televideniye va radioeshittirish Komiteti tasarrufiga o'tkazildi. Komitetning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish maqsadida Ishlab chiqarish va texnika boshqarmasi tashkil etildi va unga F.B. Safayev rahbar etib tayinlandi.



Radioeshittirishlarning hajmi asta-sekin o‘sib borib, 1959-yilga kelib ikkita dastur orqali efirga uzatiladigan radioeshittirishlarning hajmi 12 soatni tashkil etdi.

1960-yilgacha respublikada o‘tkaziladigan anjumanlar, sodir bo‘lgan voqea-hodisalar haqida radioreportajlar avval tasmaga yozib olinib, so‘ngra ushbu yozuvlar asosida tayyorlangan eshittirishlar efirga uzatilgan.

1960-yilda O‘zbekiston radiosi futbol reportajini birinchi marotaba bevosita stadionning o‘zidan olib eshittirdi, 1961-yilda esa davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan mehmonlarni kutib olinishi haqidagi reportaj bevosita Toshkent aeroportidan olib eshittirildi (translatsiya qilindi). Bu – shaharda va respublikada bo‘ladigan anjumanlar, voqea-hodisalar, bayramlarni bevosita radioefirga ulashdagi ilk qadamlar edi.

Bu davrda O‘zbekiston radiosida stereo magnitofonlar, stereo mikrofonlar yo‘q edi. Muhandis, texnik xodimlar, shaxsan ovoz yozish rejissori Nabi Hasanovning sa’y-harakatlari bilan mono turdagi magnitofon stereo turdagi yozuvlarni yozishga moslab qayta jihozlandi. Barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanib, mono turdagi mikrofonlar yordamida 1962-yil O‘zbekiston radiosida 1-marotaba stereo turdagi musiqiy asarlar ovoz yozish rejissori Nabi Hasanov ishtirokida yozildi. Respublika radiosida stereo turdagi yozuvlarga asos solindi.

1966-yil 26-aprel soat 5 dan 22 daqiqa 52 soniya o‘tganda bo‘lib o‘tgan kuchli zilzila barcha Toshkent aholisi uchun ham, O‘zbekiston radiosi uchun ham kutilmagan hodisa edi. Radio binosi birinchi silkinishdayoq qattiq zararlandi va bu binoda eshittirishlar olib borish mumkin bo‘lmay qoldi. Bu hodisa Radio uyi xodimlarini esankiratib qo‘ymadi. Eshittirishlar bir daqiqa bo‘lsa ham to‘xtamadi. RAF avtoulavi eshittirishlarni olib borish ko‘chma apparatxonasi sifatida qayta jihozlandi.

Toshkent shahri tez sur'atlarda qayta tiklana boshladi. Radio uyi yangi binosining ham qurilishi boshlandi. 1966-yil kuzida birinchi yangi kompleks qurilishi yakunlanib, foydalanishga topshirildi. O'zbekiston radiosi uchun 5 qavatli bino qurib bitkazildi. Bu binoda 17 ta studiya va apparatxonalar, montajxonalar mavjud bo'lib, ular o'sha davr uchun eng zamonaviy hisoblangan texnika bilan jihozlandi.

1967-yil Toshkent radiosi xo'jalik hisobiga o'tib, mustaqil korxonalar sifatida shakllandi. Rahimov Gafur Rahimovich direktor etib tayinlandi



Bu davrga kelib Respublika radioeshittirish va ovoz yozish uyining mahalliy eshittirishlari 15 soatni tashkil etdi va chet ellardagi radio eshituvchilar uchun eshittirishlar 1967-yilda 7 tilda 9 soat 40 daqiqaga yetdi. 1970-yillarda badiiy yozuvlar yozish uchun uchta apparatxonani stereo uskunalar bilan jihozlash ishlari boshlanib, 1972-yildan stereo turdagi badiiy yozuvlar yozish keng ko'lamda boshlab yuborildi.

1975-yil boshidan boshlab «Mash'al» radiostansiyasi o'z faoliyatini boshladi va «Mash'al» dasturining 2 soati stereo turdagi eshittirishlar edi. Bu respublika radioeshittirish va ovoz yozish uyining efirga uzatayotgan ilk bora stereo eshittirishlari edi. Bu dasturlarning ochilishi bilan bir qatorda mahalliy eshittirishlar 1975-yil 24 soatni va 1977-yil 41 soatni tashkil qildi.

1978-yil Toshkent radio uyiga Respublika radioeshittirish va ovoz yozish uyi maqomi berildi.

1982-yilga kelib, badiiy eshittirishlar tayyorlashga mo'ljallangan 3 qavatli ASK (аппаратно-студийный комплекс) deb ataluvchi qo'shimcha bino ishga tushirildi. Bu binoda katta badiiy jamoalarni yozish uchun sahni 545 kv. m bo'lgan katta konsert studiyasi, sahni 287 kv. m bo'lgan o'rta hajmdagi studiyalar (kichik konsert va kamer), dramatik eshittirishlar hamda har xil turdagi radio spektakllarni yozib olishga mo'ljallangan 2 ta BDB (ЛДБ) литературно-драматический блок) deb ataluvchi studiya mavjud bo'lib, u hajmi jihatidan sobiq Ittifoqda Moskva va Leningraddan keyin 3-o'rinda turar edi. Ushbu bino o'z davrida Chexoslovakiya va Vengriyada ishlab chiqarilgan zamonaviy texnika bilan jihozlangan bo'lib, tez vaqtda eshittirishlar hajmini 62 soatga yetkazish imkonini berdi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Dastlab Toshkentda radiostudiya qurilish ishlari nechanchi yilda boshlangan?
2. Radioeshittirish apparatxonasi ishini kimlar yuritgan?
3. 1947-yilga kelib respublika radiosida chet eldagi radio tinglovchilar uchun necha tilda va qancha vaqt mobaynida eshittirishlar uzatila boshlagan?

O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI FAOLIYATI

1992-yil 7-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Televideniye va radioeshittirish davlat komitetini O'zbekiston davlat teleradioeshittirish kompaniyasiga aylantirish to'g'risida» PF-309-son Farmoni e'lon qilindi.

1996-yil 7-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1462-son Farmoni e‘lon qilindi. Farmonga binoan O‘zbekiston davlat teleradioeshittirish kompaniyasi joylarda hududiy bo‘linmalariga ega bo‘lgan O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi (O‘zteleradio)ga o‘zgartirildi.

1990-yillar oxiri 2000-yillar boshida ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz teleradioeshittirish tizimi mukammal va zamonaviy ishlab chiqarish-texnika bazasiga ega bo‘ldi. Eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda teleradio dasturlarini tarqatish tarmog‘ining qabul qilish-uzatish tizimlari rekonstruksiya qilindi. Teleradio ko‘rsatuvlari va eshittirishlarini ishlab chiqarish hamda shakllantirish jarayoniga zamonaviy raqamli uskunalar va mediatexnologiyalar tatbiq etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-noyabrda qabul qilingan «Mustaqil teleradio kanallarini isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 3678-son Farmoni sohada butunlay yangi davrni boshlab berdi. Ushbu Farmon bilan O‘zbekiston teleradiokompaniyasi O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi (O‘zbekiston MTRK) etib qayta tashkil etildi va tizimda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Teleradiodasturlarni O‘zbekistonning barcha hududlaridagi aholisiga va boshqa davlatlarga uzatish maqsadida 2005–2006-yillarda Yerning sun‘iy yo‘ldoshlari orqali tarqatish ishlari amalga oshirildi. Bu borada tashkil etilgan «Uzbekistan» telekanali dasturlarini sun‘iy yo‘ldosh orqali Markaziy va Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo, Osiyo va

Shimoliy Afrikadagi davlatlarga namoyish etish yo‘lga qo‘yildi.

2012-yilning 31-dekabr kuni O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimida ikkita yangi – «Madaniyat va ma’rifat» hamda «Dunyo bo‘ylab» telekanallari o‘z faoliyatini boshladi.

2013-yil 30-mayda «Yoshlar» teleradiokanali yopiq aksiyadorlik jamiyati huzurida «Bolajon» bolalar raqamli telekanali tashkil etildi.

2013-yil 11-noyabrda raqamli formatga mo‘ljallangan tematik yo‘nalishdagi «Kinoteatr», «Navo», «Oilaviy» hamda «Diyor» telekanallari tashkil etildi.

2014-yil 17-dekabrda «Mahalla» ma’rifiy teleradiokanali tashkil etildi. Shuningdek, «O‘zbekiston» teleradiokanali» tarkibidagi «Oilaviy» telekanali, «Yoshlar» teleradiokanali» tarkibidagi «Navo» telekanali, «Madaniyat va ma’rifat» telekanali» tarkibidagi «Diyor» telekanali, «Dunyo bo‘ylab» telekanali» tarkibidagi «Kinoteatr» telekanallarining ijodiy- ishlab chiqarish faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Bugungi kunda O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimida jami 26 ta telekanal (shundan 14 tasi Toshkent shahrida, 12 tasi hududlarda) va 16 ta radiokanal (shundan 4 tasi Toshkent shahrida, 12 tasi hududlarda) ko‘rsatuv va eshittirishlarni efirga uzatmoqda.

Markaziy telekanallar

«O‘zbekiston» telekanali
«Yoshlar» telekanali
«Sport» telekanali
«Toshkent» telekanali

Hududiy telekanallar

Qoraqalpog‘iston
Respublikasi
telekanali
Andijon viloyat telekanali

«Madaniyat va ma’rifat» telekanali	Buxoro viloyat telekanali
«Dunyo bo‘ylab» telekanali	Jizzax viloyat telekanali
«Bolajon» telekanali	Navoiy viloyat telekanali
«Navo» telekanali	Namangan viloyat telekanali
«Diyor» telekanali	Samarqand viloyat telekanali
«Oilaviy» telekanali	Sirdaryo viloyat telekanali
«Kinoteatr» telekanali	Surxondaryo viloyat telekanali
«Mahalla» telekanali	Farg‘ona viloyat telekanali
«UzHD» telekanali	Xorazm viloyat telekanali
«Uzbekistan» telekanali	Qashqadaryo viloyat telekanali
(Sun’iy yo‘ldosh)	

Istiqlol yillarida tizimda olib borilgan islohotlar natijasida O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi o‘z tele va radiokanallari to‘lqinining tarqalishi bo‘yicha respublika hududini 100% qoplagan mamlakatdagi yagona teleradio dasturlar uzatuvchi tashkilotga aylandi. Xususan, 2015-yil oxiriga kelib tizimdagi tele va radiokanallar tomonidan bir kunda efirga uzatilayotgan teledasturlar hajmi 520 soatga, radiodasturlar hajmi 201 soatga yetkazildi. Ushbu dasturlar o‘zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, qozoq, tojik, qirg‘iz, qrim-tatar, uyg‘ur kabi jami 15 millat tilida tayyorlanadi.

Dunyodagi eng yangi texnologiyalarning joriy etilishi natijasida telekommunikatsiyalarning jadal sur’atda rivojlanib borayotgani an’anaviy televizion ko‘rsatuvlardan yangi, yanada sifatli bo‘lgan Yer usti raqamli efir teleko‘rsatuvlariga o‘tish imkoniyatini yaratdi. O‘zbekiston MDHda birinchilardan bo‘lib raqamli televideniye joriy etishga kirishdi.

Raqamli televideniyaning bepul tarqatiladigan, ya'ni ijtimoiy paketi (12 ta telekanaldan tarkib topgan) to'liq O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tomonidan ta'minlanmoqda.

- «O'zbekiston»; «Dunyo bo'ylab» «Navo»
- «Yoshlar»; «Madaniyat va ma'rifat»; «Oilaviy»;
- «Sport»; «Bolajon»; «Diyor»;
- «Toshkent»/ Hududiy TV; «Kinoteatr», «Mahalla».

2010-yilda rasmiy veb-saytda tizimdagi 2 ta tele va 4 ta radiokanallar efirlari internet tarmog'iga «on-line» rejimida uzatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib 8 ta tele, 4 ta radiokanallar va 1 ta hududiy teleradiokompaniya efiri internet tarmog'iga uzatilmoqda.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. «O'zbekiston Respublikasi Televideniye va radioeshittirish davlat komitetini O'zbekiston davlat teleradioeshittirish kompaniyasiga aylantirish to'g'risida» PF-309-son Farmoni qachon qabul qilingan?
2. Nechanchi yillarda Yerning sun'iy yo'ldoshlari orqali tarqatish ishlari amalga oshirildi?
3. 2012-yilning 31-dekabr kuni O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimida qaysi kanallar o'z faoliyatini boshladi?
4. Markaziy telekanallardan qaysilarini bilasiz?

Mavzu yuzasidan topshiriq:

Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan kanallar faoliyatini tahlil qilish, kanallarning yo'nalishlarini topib kelish.

TELEVIDENIYE REJISSORI

Ommaviy axborot vositalari ichida eng navqironi, eng xalqchili va eng oldingi safda turgani televideniya. Xalqimizning estetik tarbiyalanishida, ma'naviy kamol topishida, ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy jihatlarida televideniyaning o'rni va roli beqiyos. Texnika taraqqiyoti va uning tez rivoji televideniyaning boshqa aloqa vositalari ichida birinchi o'ringa olib chiqdi. Televideniya o'zining tezkorligi, ta'sirchanligi, ommaviyligi va samimiyati bilan shuhrat qozondi. Ilmda, fanda, madaniy va ijtimoiy hayotda «dunyo darchasi» ekanligini namoyish etdi. Insonni shaxs sifatida kamol toptirish, ijtimoiy muammo va qarama-qarshiliklar oldida ongini shakllantirish, jamiyat taqdiri oldida inson mas'ulligini tarbiyalash televideniyaning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, televideniya kishini har tomonlama estetik tarbiyalashda kuchli qurol vositasi ekanligini qayd qilish kerak.

Shunday ekan, bu dargohda ishlaydigan yuksak malakali kadrlarni tayyorlash, zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni yetkazish alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz rahbari, televideniya ravnaqiga, uning texnik imkoniyatlariga, ijodiy xodimlar malakasiga maxsus e'tiborini qaratgan farmon va qarorlar qabul qilayapti. Ko'p mingli jurnalistlar qatori, rejissorlar ijodi ham milliy mafkuraga uzviy bog'liqdir. Jamiyatda shakllanayotgan mafkura, rejissorlar ijodida o'z ifodasini topishi kerak.

Rejissorning dunyoqarashi, jahon taraqqiyot qonunlari, tabiat va insonning sir-asrorini chuqur tafakkur qilishi ijod mazmunini tashkil qiladi. Rejissor o'zidan avval o'tgan buyuk san'atkorlar, rassomlar, yozuvchilar, bastakorlar ijodini yaxshi

o‘rgangan, uslubiyatlari, o‘ziga xos xususiyatlarini idrok qilgan bo‘lishi kerak. Jahon va milliy madaniyat an‘analari davomchisi bo‘lib shakllanishi lozim. Televizion rejissorning g‘oyaviy-badiiy kamoli ixtisosligining nazariy va amaliy tomonlarini, texnik imkoniyatlarini chuqur bilganligida aniqlanadi. Televizion rejissor adabiyotni, teatr, kino san‘atini, musiqa, tasviriy san‘at, jurnalistikani tushungan barkamol inson, har tomonlama yetuk shaxs bo‘lishi kerak. Televideniye o‘z tabiatiga ko‘ra sintetik san‘at turiga kiradi. U barcha san‘at turlarini o‘zida birlashtirgan holda, texnikani ham o‘zida mujassamlashtirgan san‘atdir. Ayniqsa, keyingi yillarda raqamli televizion texnika taraqqiyoti ilgarilab ketdi. Uning imkoniyatlari kuchayib, ijod uchun katta sharoitlar yaratildi. Televideniye – jamoaviy san‘at. Televizion dasturlarning yaratilishida faqat birgina rejissorgina emas, muallif, muharrir, tasvirchi, rassom, bastakor, ovoz rejissori, chiroqchi, video va texnik muhandislar ishtirokidan so‘nggina televizion asar ro‘yobga chiqadi. Televizion ko‘rsatuvni tayyorlashda maslakning birligi, g‘oyaviy badiiy yo‘nalish, ijodiy uslubning yaqinligi, tartib-intizom muhim rol o‘ynaydi. Bir yoqadan bosh chiqarish, bir maqsad yo‘lida harakat qilish katta ahamiyat kasb etadi. Televideniye rejissori ana shu ijodiy jamoaning g‘oyaviy-badiiy rahbarigina emas, balki tarbiya qiluvchi rahnamosi hamdir.

Televizion ko‘rsatuvlarning g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi, uning sifati, haqqoniyligi, hayotni to‘g‘ri va aniq aks ettirishida rejissor shaxsan masuldur. Televideniye rejissorining diqqat-e‘tiborida inson, uning kechinmalari, shaxsiyati, ichki dunyosi, maqsad va intilishlari har tomonlama nazarda bo‘lishi kerak. Rejissorning butun fikr-u zikri, ijodiy izlanishlari insonni o‘rganishga, ekran oldidagi shaxs tadqiqotiga qaratilishi

kerak. Rejissor kishi ruhining tadqiqotchisi hisoblanadi. Shuning uchun ham insonning shaxs sifatida shakllanishi, taraqqiyot jarayonlarini bo'y-basti bilan ro'y-rost televizion asarlarda ochib berish kerak. Televizion rejissor ijodi ilk bor telessenariy bilan duch keladi, shu bois telejurnalistikani, teledramaturgiyani, uning g'oyaviy-badiiy yo'nalishlarini, muammo va sir-asrorlarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Televizion dramaturgiya qisqa muddat ichida boshqa san'at dramaturgiyalariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarini, yangi-yangi qirralarini kashf qildi. Televizion dasturni qabul qilishda tomoshabin munosabati, faol ishtiroki bu san'at turini yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. Kino va teatrga nisbatan tomoshabin auditoriyasi oldida televideniyaning cheksizlik xislatlaridan biri sirdoshligi, inson shaxsining ichki dunyosini keng ko'lamda ochib berishi teledramaturgiyada katta imkoniyatlar tug'dirdi. Dramaturgiyaning yangi-yangi janrlari publitsistik hujjatli drama, ijtimoiy ocherk, har xil tomosha janrlari paydo bo'ldi. Badiiyat bilan hujjatlilik bir-biri bilan televideniya chambarchas bog'lanib ketdi. Bu, o'z navbatida, ishtirokchi-aktyorlar oldiga ham, boshqalarga ham yangicha talablarni qo'ydi. Berilgan holatlarda imkon boricha tabiiylikni, samimiylikni, ifoda vositalarida lo'ndalikni, kutilmagan holatlarda yaratuvchilikni tug'dirdi.

Hozir televideniya kirmagan xonadon, to'lqinlari yangramagan joy yo'q. To'rtinchi hokimiyat, deb bekorga aytilmaydi. Televideniyaning mo'jizakorligini, uning imkoniyatlarini butun jahon tan oldi. Bizga ma'lumki, teatr san'ati ming yillik tarixga ega. Yozilgan sahna asarlarini dramaturglar, ijro etgan aktyorlar sahnalashtirib kelgan. Haqiqiy sahnalashtirish, tom ma'noda sahna asarini yaratish yaqin yuz yillar atrofida yuzaga keldi. Dramaturg ham,

aktyor ham uchinchi bir shaxsga – boshqaruvchiga murojaat etadilar. Bu ham davr ehtiyoji, zamon talabi. Boshqaruvchi bu – hozirgi zamon tilida rejissor, deb ataladi.

Rejissor ijodiy jamoani boshqaribgina qolmay, tashkilotchilik qiladi, barcha ishlarda rahnamo bo‘ladi. Teatr rejissorlarining o‘z xislatlari, fazilatlar bor. Kino rejissori ham o‘zgacha ishlash uslubiyatiga ega. Televideniya ishlovchi rejissor esa boshqacha, har ikkala kasbning uyg‘unligidan, omixtaligidan kelib chiqib boshqacha xislatlarni o‘zida kasb etadi. Televideniya ishlaydigan rejissorlar alohida toifadagi odamlar bo‘lishi kerak. Bu dargohda o‘ta sezgir, zukko, hozirjavob insonlar ishlashi lozim. 1960-yillarda televideniyaning adabiy-dramatik tahririyatida teatr sohasida ko‘p yillar xizmat qilgan Yuriy Purtov degan rejissor bor edi. U paytda televideniyaning barcha ko‘rsatuvlari jonli ketar, alohida yozib olinmas edi. Purtov hayotda ancha o‘zini tutib olgan, bamaylixotir, yetti o‘lchab, bir kesadigan ijodkor edi. O‘zi tayyorlayotgan ko‘rsatuvlarni efirga uzatayotgan paytda 4–5 tasvirdan birini tomoshabinga havola qilish vaqtida ayni urg‘u beradigan kadrlar kechikib uzatilar, tasvir kuchi yo‘qolgandan keyin efir yuzini ko‘rar edi. Bo‘sh, hech kimga ozor bermaydigan bu rejissor zuvalasi televideniya uchun yo‘g‘rilmaganligini sezib, teatrga ketib qoldi. Mashhur kinorejissor Qamara Kamolova ham o‘z faoliyatini televideniya boshladi, lekin ko‘p o‘tmay iqtidorini kinoda topdi. Dastlab televideniya dargohida ish boshlagan teatr rejissorlari Armug‘on Muhammedov, Boboxo‘jyev, Viktorina Raykova, Muzaffar Asadullyev, Maqsud Yunusov, Haybat Aliev, Akmal Haydarovlar ham asr mo‘jizasining sir-asrorlarini bilib olgunga qadar ancha qiynalganlar, qo‘rqanlar. Atak-chechak qilayotgan bola ko‘p yiqilganday, bular ham adashganlar,

dovdirab, pultda nima qilarini bilmay qolganlariga ko‘p guvoh bo‘lganman. Faqat tajriba va izlanish tufayli o‘z iqtidorini keyinchalik televideniya ko‘rganlar. Rejissorlarning keyingi avlodi Meli Mahkamov, Hamid Qahramon, Mirsiddiq Ustaboboyev, Mirabbos Mirzaahmedovlar bu holatlarni tez o‘zlashtirdi. Buyuk teatr rejissori Toshxo‘ja Xo‘jyev ham umrining so‘nggi yillarida televideniya hamkorlik qilib, spektakllar sahnalashtirdi: «Okeanda yetti faryod», «Hoji afandi uylanadi» kabi televizion asarlar shular jumlasidandir. Lekin, shunday buyuk shaxs ham spektaklni efirga jonli uzatayotganda pultda o‘tirib shoshib qolardi. Rejissorlik pultida o‘tirib kadr tanlash, jonli efirda badiiy asar yaratish, uni bunyod qilish hammaning qo‘lidan kelavermaydi. Teatrda rejissor sahnani me‘yoriga yetmaguncha takror va takror, shoshmasdan mashq qilaveradi. Kinoda tasvir yoqmasa qaytadan tasvirga tushirish mumkin. Televideniya bunga imkon yo‘q. Bariga hozir, shu tobda, shu zahoti ulgurish shart. Bo‘lmasa, futbolda urilgan to‘pni qaytarib bo‘lmaydi, Navro‘z bayramida ilg‘ab olingan kadrni takroran qaytarib bo‘lmaydi. Yoki bo‘lmasa, yig‘ilishda gapirayotgan odamga, qaytadan gapiring, biz olishga ulgurmadik, deb aytolmaymiz. To‘g‘ridan to‘g‘ri olib borilayotgan holatlarda tezkor bir fikrga kelish shart bo‘lganidek, televideniya rejissori ham zudlik bilan to‘g‘ri, yagona bir qarorga kelishi kerak. Tomoshabin oldidagi rejissorning mas‘uliyati ham shunda. Manaman degan teatr rejissori ham, kino rejissori ham televizion pult oldida dovdirab qoladi. Chunki, uning o‘zgacha sehri bor. Million-million ko‘zlar rejissor nigohiga qarab turganday, uning idroki, bilimi, saviyasi sinovdan o‘tayotganday.

O‘zbekiston televideniya uchun ish jarayonini ko‘p yillar mobaynida kuzatgan, zuvalasi faqat televideniya uchun

yo'g'rilgan Qo'zijon Hakimov to'g'ridan to'g'ri olib berilgan ko'rsatuvlarni tomoshabinga yetkazishda yuksak mahorat egasi bo'lgan. «Mustaqillik bayrami»ni, «Navro'z» tadbirlarini, «Sharq taronalari»ni, sport universiadalarini tomoshabinga uzatishda unda alohida ilhom jo'shib turardi. Pultda o'tirganda ham o'zgacha holat kasb etardi. Qarshisida turgan 8–10 ta tasvirdan boshqa hech narsani ko'rmasdi. O'sha tasvirlardan haqiqiy televizion asarni ijod qilardi. Maydonda kechayotgan tomoshadan, uning rejissori o'ylagan rejalaridan ustunroq bo'lgan go'zal manzaralar, urg'u berilgan kadrlar, kutilmagan holatlarni ilg'ab olganini tomosha qilardik. Qo'zijon Hakimov har bir mashqni takror va takror kuzatar, o'zicha qaydlar qilar, tasvirchilar bilan oldindan kelishib olar, pultda o'tirganda esa uni hech tanib bo'lmasdi. Qo'yilgan aniq maqsad, aniq rejalar amalga oshar, oddiy imo-ishoralar bilan kadrlar tomoshabinga uzatilar edi. Rejissor asissentlari Gumar Nugayev, Komil Oripov Qo'zijonning nigohiga qarab turar, qo'l ishorasi, ovoz ohangi zargarona kadr tanlashga imkon yaratardi. Qo'zijon Hakimov to'g'ridan to'g'ri olib boriladigan tadbirlarning hadisini olgan, o'ziga xos intuitsiyaga ega bo'lgan rejissor edi. U halol, talabchan, o'ta mas'uliyatli, xullas, televideniyaning vijdoni edi. Murakkab voqealarni shu zahoti ko'rsatishda professional mahoratga ega bo'lgan rejissor Qo'zijon Hakimov men uchun televizion rejissuraning etaloni bo'lib qoldi.

Televideniye bu – kichik ekran san'ati, yirik plan san'ati. Insonning yuzi, ko'zi, kayfiyati, ruhiyati bizga qiziq. Televideniye umumiy, cheksiz planlarni uncha yoqtirmaydi, uning ko'lami, tasiri o'zgacha. Katta ekranda ko'rilgan jang sahnalarining tasviri kichik ekranda ko'rilgan tomosha tasviridan farq qiladi. Shunday ekan, «Navro'z» tadbirlari

tomosha qilinganda turfa odamlarning turishi, holati, o'zini tutishi tomoshabinga qiziq. U yoqdan-bu yoqqa yurgan, tinimsiz harakatda bo'lgan kameralarning imkoniyatini namoyish qilish, chumoliday odamlarning harakatini tomosha qilish, uzundan uzoq beta'sir tasvirlarni ko'rish odamlarni charchatadi. To'g'ri, hozir texnik imkoniyatlar juda kengayib ketdi. Yangidan yangi, ildam, tezkor kameralar paydo bo'ldi. Bu degani o'shalarni ko'z-ko'z qilish kerak degani emas-ku. Haddan ziyod effektlarga kuch berib, rejissor rejasini, oldiga qo'yilgan maqsadini, televideniye san'atining burchini unutib qo'ymayapmizmi? Tomoshabin umumiy planlarni sog'inib ko'rsin. Hozirgi o'sib kelayotgan hamkasblarimga havasim keladi. Biz ko'rmagan texnikani bular ko'rди, katta imkoniyatlar yaratildi. Lekin, bunday texnikadan unumli va ifodali foydalanishimiz kerakka o'xshaydi. Murakkab effekt vositalari, montaj usullaridan o'rinsiz, bemaqsad foydalanmaslik kerak. Bu narsani shoshma-shosharlik bilan tayyorlangan, bir-biriga o'xshagan kliplarda, arzon-garov tayyorlangan ko'rsatuvlarda ham ko'rish mumkin. Montaj sirlarini yaxshi o'rgangan odamning hammasi rejissor bo'lavermaydi. Rejissuraning o'z sir-asrorlari, qonun-qoidalari bor. Toki kishi bu maktabni o'tamas ekan, har maqomga yo'rg'alayveradi. Ko'rsatuv tomoshabinni larzaga solmas, junbushga keltirmas ekan, qilingan mehnat, sarf qilingan xarajat osmonga uchdi, deyavering.

Jonli efir paytida butun ijodiy jarayon sardori rejissor hisoblanadi. Pultda uning yonida rejissor asissent, qator texnik muhandislar, orqasida ovoz sozlovchi rejissorlar, studiyada yordamchi rejissor, tasvirchilar, chiroqchilar va ko'p sonli ishtirokchilar, qarshidagi qator monitorlarda kameralardan kelayotgan sakkiz-o'nta tasvirlar, ularni saralash, keraklisini

tomoshabinga uzatish mas'uliyati rejissordan keng ko'lamdagi idrokni, hozirjavoblikni, aqliy safarbarlikni talab qiladi. Yodimda, bir mas'ul xodim televideniya rejissor ikkilamchi, birlamchi muharrir hisoblanadi, deb aytgan edi. Bu butunlay noto'g'ri fikr. Televideniya, avvalambor, bu tomosha dargohi, tomoshani rejissor tayyorlaydi. To'g'ri, informatsion dasturda so'z birinchi o'ringa qalqib chiqadi, lekin uni ham rejissor ko'rimli qiladi. Badiiy televideniya, shou dasturlarda rejissor o'rni va roli beqiyosdir. Hujjatli ekranni ham ifoda vositalari orqali rejissor tayyorlaydi. Muharrir mas'uliyatini inkor qilmagan holda rejissor iqtidori, uning imkoniyatlari birinchi o'ringa chiqadi. Hozirgi zamon texnika taraqqiyotida televideniyaning jonli ko'rsatuvlarini efirga uzatishda rejissor mas'uliyati benihoya katta va uning istiqboli porloqdir. Shunday ekan, televideniya rejissor imkoniyatidan unumli foydalanish vaqti keldi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Televideniya rejissori ijodiy jamoaning qanday rahbari hisoblanadi?
2. Dastlabki televideniya rejissorlaridan kimlarni bilasiz?
3. Jonli efir vaqtida butun ijodiy jamoaning sardori kim?
4. Ko'rsatuvning sifatli chiqishida televideniya rejissoridan nimalar talab qilinadi?

REJISSORLIK QOBILIYATINI TARBIYALASH

Mo'jiza o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Uning ortida tinimsiz, mashaqqatli mehnat yotibdi. Rejissorning har qanday rejisi, o'ylagan maqsadi mashqsiz to'satdan amalga oshmaydi. Spektakldagi har bir topilma, aktyorning qiyofa yaratishidagi

xatti-harakati izlanishlar natijasida yuzaga keladi. Darhaqiqat, mashq tufayligina rejissor ham, aktyor ham idrok qiladi, asarning mag‘zini, yechimini topadi. Ko‘pincha teatrdashq paytida ijodiy muhit hukm suradi, hech kim xalal bermaydi, pashsha uchgani bilinadi. Bu ijodiy jarayon. Haqiqiy san‘at ahli bu jarayonni qutlug‘ bir holat deb biladi. Rejissorning stol atrofida ishlashi bo‘ladimi, sahnada mizansahnalarni joylashtirish, aktyorlarning libosda, pardozdashq o‘tkazishi bo‘ladimi, sahna bezagi, musiqa va ijro uyg‘unlashgan mashq bo‘ladimi, barchasida ijodiy muhit hukm surmog‘i dardor.

Mashq jarayonida rejissor yordamchisidan tortib pardozchi-yu liboschi, sahna ishchisi-yu jihozchi, chiroqchi, barcha-barchasi rejissor va aktyor xizmatiga, mashqning unumli o‘tishiga qaratilishi kerak.

Farzand ona qornida to‘qqiz oy kamol topib dunyoga kelganiday, ijod mahsuli – spektakl ham teatr farzandidek mashqlar tufayli kamol topadi, o‘z me‘yorini topgandagina sahna yuzini ko‘radi, tomoshabinga havola etiladi.

Demak, teatrdashq spektakl, rejissor rejasiga, asosan, aktyorning rol ustida ishlashi, rassom, bastakor va boshqa ishlab chiqarish jarayoniga qatnashgan barcha soha kishilarining maslagida ro‘yobga chiqar ekan.

Kinodashq boshqacharoq. Unda teatrdagidek oylab mashq qilib, yaxlit spektakl chiqarish emas, tasvirga olinadigan sahnalarnigina mashq qilinadi, me‘yoriga yetgan holatdagina tasmaga muhrlanadi. Bu mashqlardan rejissor qoniqish hosil qilgandagina tasvirga tushiriladi va bir umrga muhrlanadi. Aktyor uni qayta ijro qilmaydi. Kinotomoshabin filmni takror va takror ko‘rganda ham aktyor ijrosi o‘zgarmaydi. Kinorejissor ssenaristning istagan lavhasini tasvirga olishi mumkin. Aktyor rolning tadrijiy rivojini o‘ylagan holda xoh

o'rtasidan, xoh oxiri yo boshidan lavhalarni ijro qilaverishi mumkin, faqat yaratgan qiyofaning yaxlitligini montajdan so'ng ko'ra oladi. Kinoda qahramonga o'xshashlik bo'lsa bas, professional aktyor bo'lishi shart emas. Rejissor maktab ko'rmagan aktyor bilan ham mashq qiladi, roli ustida ishlaydi, ko'zlangan maqsadni chiqarishga harakat qiladi. Bu holatlarda rejissorga ovozlashtirish, ohanglashtirish yordamga keladi, malakali aktyorlar ovozlashtirib, qiyofaning me'yoriga yetishida yordam beradilar. Mashq jarayoni ovozlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Kerakli ifodani topish, ohangni moslash mashaqqatli mehnat evaziga keladi. Teatrda ovozlashtirish yo'q, kinoda buning imkoni bor.

Kinoda jang sahnalarini, yong'in sahnalarini, omma bilan bog'liq bo'lgan sahnalarni takror va takror mashq qilishning iloji yo'q. Buni tasvirga olish jarayonida tasvirga tushirish nuqtalari, unga mas'ul shaxslar oldindan tayyorgarlik mashqlarini o'tkazishlari, undan so'nggina ommani jalb qilishlari lozim. Kinoda asosiy qahramonlar bilan niyat, maqsad, muddaolar ustida mashq qilinadi va bu jarayonda tasviriy ifodalar topiladi. Kameraning joylashishi, voqeaning ifodali nuqtasini topishi, uning harakatda bo'lishi qayta-qayta mashq qilinadi. Nur yordamida, qo'shimcha jihozlar ko'magida kadr saralanadi. Tasvirchi-operator bilan rejissor nigohidan o'tkaziladi. Muhrlanishi lozim bo'lgan kadr ko'p izlanishlar va bahslar evaziga tayyorlanadi. Kamera nigohi bu – rejissor nigohi. U tanlagan nuqta rejissor rejasining ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi, tomoshabin nigohiga yo'naladi. Mashq jarayoni kinoda ham eng muhim omillardan hisoblanadi. Yetti o'lchab, bir kes degan naql bor. Tasvirni muhrlashdan avval har tomonlama tekshirib, ko'zdan kechirib, yagona to'xtamga kelib muhrlash darkor.

Noaktyor atamasi televideniye tufayli og‘izga tushdi. Televideniye professional aktyorlar bilan bir qatorda asosan noaktyorlar bilan ishlay boshladi. San‘atning sir-asrorlarini, qonuniyatlarini bilgan professional aktyorlar qayoqda-yu, hech narsadan bexabar noaktyorlar qayoqda. Oynayi jahonda chiquvchilarning aksariyati noaktyor, ular bilan rejissor mashqi qanday kechadi?

Teatrda ham, kinoda ham talab bitta: hayotiylikka erishish, ishonarli ijro qilish, tomoshabin qalbidan joy olish. Bu holat televideniye uchun ham asosiy shartlardan biridir. Televideniye yirik plan san‘ati. Tomoshabin ekranda chiquvchining nigohiga qarab turadi. Uning ko‘zi, aytayotgan so‘zi, dili va tili birligiga baho beradi. Televideniya yolg‘on ko‘z va so‘z darrov bilinadi. Teatrda zalda o‘tirgan tomoshabinni aldash mumkin, ekranda aldash mumkin emas. Hayotiylik, to‘g‘ri va ishonarli ijro, samimiyluk televideniya ham bosh mezon. Rejissor mashq jarayonini mana shu holga qarashi kerak.

Teatrda aktyor tomoshabinning jonli nafasini sezib turadi, kayfiyatidan ruhlanadi. Kinoda aktyorning tomoshabinga reaksiyasi yo‘q, chunki u muhrlangan. Televideniya aktyor ham, noaktyor ham million-million ko‘z qarab turganini sezadi, tomoshabin salovati bosadi. To‘g‘ri, telekamera oldida tomoshabin ko‘rinmaydi, lekin uning ruhi, nigohi ekranga chiquvchi ko‘z oldida turadi. Tomoshabin ham teatrdagiday qatnashadi, muloqotda bo‘ladi. Chiquvchi va tomoshabin oldidagi sinov, imtihon ro‘y beradi. Bu, albatta, chiquvchiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Televideniya kelgan dehqon, quruvchi, ishchi, har xil kasb egalari albatta bir xil mushohada qilolmaydi, aktyor sifatida o‘ynab berolmaydi. Rejissor har bir shaxsning o‘zidan kelib chiqib sodda va samimiy muloqotga chorlashi kerak, oddiy muloqot siqqlikni yo‘qotadi, tabiiy shart-sharoit tug‘dirish, dilidagini tiliga chiqarish uchun

imkon yaratish rejissorning mashq jarayonidagi asosiy burchi hisoblanadi. Noaktyorni cho‘chitmaslik, ko‘nikma hosil qilish uchun imkon yaratish, avvaldan kinodagidek kamera nuqtalarini joylashtirish, chiroqlarga moslash, barcha yordamchi sahnalarning chiquvchiga ko‘mak berishiga ijodiy jarayonni qaratishi kerak.

Mashq – mushtra-trening ham deyiladi. Ayniqsa, bu professional aktyorlar uchun suv bilan havoday zarur. Ba’zan tarbiya kundalik hayotimizda qanchalik ehtiyojga aylangan bo‘lsa, trening ham aktyorlarga kundalik zaruratga aylanishi kerak. Ovoz yo‘llari, jussa xatti-harakati kundalik mashqqa ruju qo‘ymasa, beso‘naqay jasadga aylanadi, sahnani tezda tark etadi. Plastik jussa bilan yuksak mahoratga ega bo‘lgan san’atkor sahnada, ekranda uzoq yashaydi.

Ko‘rib turibmizki, teatrda ham, kinoda ham, televideniya ham mashqning o‘z o‘rni bor ekan. Rejissor ijodi mashq bilan uzviy bog‘liqligini unutmaslik kerak.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Rejissor kim va uning vazifalari nimalardan iborat?
2. Teatr, kino va televideniya rejissorlarining o‘xshash va farqli tomonlari nimada?
3. Rejissorning aktyor bilan ishlash jarayoni haqida nimalarni bilasiz?

TELEVIDENIYEDA TASVIRCHI VA UNING VAZIFALARI

Operator – asosiy ekran mahsuloti yaratuvchilaridan biri bo‘lib, rejissor va rassom bilan birgalikda ekran mahsulotining g‘oyaviy-badiiy yechimini topadigan, bevosita suratga olib


beruvchi xodim hisoblanadi. Operatorning «ishlab chiqarish vositasi» – bu televizion kameradir.

Operator asosiy film yaratuvchilardan biri hisoblanadi va u bevosita filmning tasviriy vositasi ustida ish olib boradi, postanovkachi-rejissor bilan hamkorlikda filmning g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi va tasviriy talqin etilishini ta‘minlaydi.

Operator film sujetining rivoji, obrazlar xususiyati, suratga olish ishlarida nimalarga e‘tibor qaratish lozimligini bilish uchun avvalo rejissorlik ssenariysini, uning rejalarini o‘rganib chiqadi. Rassom bilan hamkorlikda dekoratsiyani, suratga olinishi lozim bo‘lgan obyektlarni, yorug‘lik yo‘nalishini o‘rganadi.

Operator idrokli, ko‘zi o‘tkir, harakatchan, epchil bo‘lishi, u odatda bo‘lajak filmni oldindan ko‘ra bilishi, shu sababli har qaysi kadрни alohida-alohida o‘zlashtirib, qaysi tomondan suratga olish, yorug‘likni qay tomonga tushirish singari detallarni ishlab chiqishi kerak. Qolaversa, u film qahramonining harakterini, u gavdalantirayotgan obrazni bi-

lishi, uning imo-ishoralari, xatti-harakatlarini tasavvur etishi kerak. Chunki u ssenariy muallifi bilan rejissorning fikr-o‘ylari, aktyorlarning ijrosini tasvirga tushiruvchi, ya‘ni tomoshabinga yetkazuvchi shaxs hisoblanadi. Operator tasvirga olinayotgan kadрни «kamera ko‘zi» bilan ko‘rgan holda zarur rakurslarni va suratga olish planlarini va usullarini tanlaydi. Operator suratga olagan kadri oldingi yoki keyingi



kadrning bir bo‘lagi ekanligini yaxshi bilishi zarur. Operator shunchaki kadrlarni tasvirga olishi kerak emas, u ma’lum ma’noda ijodiy asar yaratuvchi bo‘lishi zarur.

Operator tasvirga olish jarayonida kadrning mazmunidan, film dramaturgiyasidan kelib chiqqan holda turli planlardan foydalanishi zarur, bular ko‘rinish (detal) plan, yirik plan, birinchi o‘rta plan, ikkinchi o‘rta plan, umumiy plan, uzoq plan va ikkita qo‘shimcha makro va mikro planlardir.

Kino va televideniye operatori filmlar va televizion ko‘rsatuvlarni tasvirga olish ishlarini bajaradi. Ushbu ekran mahsulotlari turli texnik apparaturalar turlari va turli uskunalardan foydalanishni talab qiladi. Kino loyihalarida ishtirok etayotgan operator rejissorning badiiy g‘oyasini ochib berishga ko‘proq e’tibor qaratadi. Turli suratga olish usullari, suratga olish obyektlari va aktyorlarni, teleboshlovchi va ishtirokchilarni yoritish, kadrning kompozitsion tuzilish strukturasi, kameraning harakatlanishi, planlarning o‘zgarishi – bu operatorga yordamga keluvchi usullardir. Bir necha kamera o‘rnatish – televizion studiya ishlarining o‘ziga xos xususiyatidir. Rejissorlik pultidan operator turli joylarda o‘rnatilgan bir necha kameralarni, turli rakurslarda tasvirga olinayotgan kadrlarni boshqaradi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Tasvirchi kim va uning vazifalari qanday?
2. Tasvirchi tasvirga olish jarayonida foydalanadigan qanday planlar mavjud?
3. Kino va televideniye tasvirchisining farqi nimada?

Mavzu yuzasidan topshiriq:

O‘zingizga yoqqan biror film va ko‘rsatuvdan tasvirchi ishini tahlil qilib keling.

YORITISH REJISSURASI

Televizion ko'rsatuvlar va kinofilmlarni yoritish – bu shunchaki yorug'lik tarqatish emas. Bu yuqori did, dramaturgiya, quvonch va g'amgin tuyg'u holatlaridir. Kayfiyatni ko'tarish, his-tuyg'uni ifoda etish – yorug'likning asosiy elementlaridan biridir.

Yaxshi yoritish studiyadan tashqari televizion ishlab chiqarishda juda ham zarur. Qimmat turuvchi studiya kameralariga qaraganda kichik formatli videokameralar yoritish shartlariga nisbatan ancha talabchandir. Obyekt va kompozitsiyani tanlashga qo'shimcha ravishda yorug'lik (yog'du) ham tomoshabinlarning kadr yoki planni idrok etishlariga ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

Texnik nuqtayi nazardan olganda maqbul tasvirni olish uchun asosiy yoritishning eng kam darajasi zarur. Asosiy yoritishni o'lchash uchun tushayotgan yog'duni o'lchaydigan eksponometr ishlatiladi. Kameralar konstruksiyasi murakkablashuvi bilan talab qilinadigan asosiy yoritish darajasi pasayadi va videokameralarning eng oxirgi avlodi nisbatan past yoritilganlikda samarali ishlashi mumkin. Shunday bo'lsa-da, istalgan suratga olinayotgan sahnaning kontrastlilik diapozoniga e'tibor berish zarur, chunki videokameralar ko'pchiligi yorug'likning qorong'ulikka nisbati 20 ga 1 bo'lgandagina samarali ishlaydi.

Deyarli barcha ko'chma videokameralar rangli. Rangli televideniye esa subtraktiv ranglar qoidalariga qaraganda ko'proq asosiy ranglar qoidasida ishlaydi. Oq rangning rang harorati ayniqsa muhim ahamiyatga egadir. Turli yorug'lik manbalari turli rang haroratiga egaligi sababli yoritish shart-sharoiti har gal o'zgarganda oq rang muvozanatini tuzatish

yo‘li bilan videokamerani sozlash zarur. Turli yorug‘lik manbalarining rang haroratlari yorug‘lik filtrlari yordamida o‘zgartirilishi mumkin.

Studiyadan tashqari suratga olishda ishlatiladigan asosiy yoritish asboblari o‘z ichiga fokuslangan qattiq yog‘duning tor tarafini paydo qiladigan yo‘naltirilgan yorug‘lik asboblari, shuningdek, chetlari yuvilib ketgan yog‘duning keng tarafini paydo qiluvchi tarqoq yorug‘lik va yumshoq yog‘du asboblari oladi. Ko‘chma yoritish asboblari, odatda, ba‘zan kvarts lampalari deb nomlanadigan, rangli televideniye standarti bo‘lgan 3200° K doimiy rang haroratida yonadigan volfram-galogen lampalardan foydalaniladi. Yo‘naltirilgan yorug‘lik asboblari fokuslagichsiz yoki yoritish tusini variantlarga ajratish imkonini beradigan fokuslanadigan nur bilan bo‘ladi.

Yo‘naltirilgan yorug‘lik asboblari ancha qattiq yog‘du, tarqoq yorug‘lik asboblari ancha yumshoq yog‘du taratadi. Eng yumshoq yog‘duni studiyadan tashqarida suratga olishlarda keng ishlatiladigan, yumshoq yorug‘lik asboblari deb nomlanadigan asboblari chiqaradi.

Yoritish asboblari pol ustidagi tirgaklarga o‘rnatilishi, kamerga mahkamlanishi yoki qo‘lda ushlab turilishi mumkin. Ko‘chma yoritish asboblari ko‘p miqdorda elektr energiyasini iste‘mol qiladi.

Yoritish ravshanligini yorug‘lik regulatorlari yordamida, yo‘naltirilgan yorug‘lik asbobining nur enini o‘zgartirish, asbobdan suratga olish obyektiga qadar bo‘lgan masofani o‘zgartirish, shuningdek, tarqatgichlardan foydalanish yo‘li bilan o‘zgartirish mumkin. Suratga olish sahnasiga tushayotgan yog‘duning sifati va yo‘nalishini o‘zgartirish uchun pardachalar, soyabonlar, blendalar, shoyi elaklar va qaytargichlardan ham foydalanish mumkin.

Yopishqoq tasma, aluminiy zargog‘oz, xira yerozol, shuningdek, ikki-uch tilchali o‘zgaruvchan tok perexodniklari ham boshqa foydali yoritish jihozlariga kiradi. Studiyadan tashqarida suratga olish vaqtida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish lozim.

Yoritish nafaqat texnika, balki san‘at hamdir. Hajmni, ya‘ni tasvirning uch o‘lchamli xayolotini yaratish yoritishning asosiy estetik komponenti hisoblanadi. Yoritilganlik, yorug‘likning yo‘nalishi, kameraning suratga olish obyekti va yorug‘lik manbayiga nisbatan holati ana shu effektни yaratishga ta‘sir ko‘rsatadi. Kinematografik yoritishda yorug‘likni o‘rnatish suratga olishning har bir yangi nuqtasi uchun o‘zgaradi.

Uch nuqtadan turib yoritish – tasvirlovchi, to‘ldiruvchi va qarshi yorug‘liklardan foydalanishni ko‘zda tutadigan klassik texnikadir. Uch nuqtadan turib yoritish – ideal pirovard natija emas, balki suratga olish joyi yoritilganini hosil qilish uchun ideal boshlash nuqtasidir. Yoritishda e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan qo‘shimcha omillar o‘z ichiga yoritishning asoslanganligi yoki asoslanmaganligini, faktura yoritilishini, orqa planda soyalar mavjudligini, shuningdek, sutka vaqtini belgilash va kayfiyatni yaratish uchun orqa planni yoritishdan foydalanishni oladi.

Kamera yorug‘ligi. Kamerali yoritish asboblari, bevosita kameraga mahkamlanadi va suratga olish guruhida asbobni qo‘lda ushlab turadigan odam bo‘lmaganda, suratga olinayotgan harakat esa pol ustida qurilma o‘rnatish imkonini bermaydigan (masalan, harakatda suratga olishda) yoki kamera operatori suratga olish obyektini doimiy, bevosita yoritish bilan ta‘minlashni xohlagan paytda foydalaniladi. Kamera yorug‘ligidan juda ko‘p foydalaniladi.

Yo'naltirilgan yorug'lik. Nisbiy ravshanlikni sinchiklab nazorat qilish kadrda narsaning sezilish darajasini oshirishi mumkin, lekin bu muammoni u yaxlit holda hal eta olmaydi. To'g'ri joylashtirilgan qo'shimcha o'tkir yo'naltirilgan yorug'lik narsaning vazni yoki zichlik hajmini yaratuvchi qirralarni ta'kidlash yo'li bilan xabar qila oladi. Yo'naltirilgan yorug'likning o'zi bunday taassurotni uyg'otishi shart emas. Uni shunday yo'lga qo'yish kerakki, u yaratgan yorug' va soyalar tasvirini tomoshabinlar hayotda ko'rayotgan bir maromli yorug' va soya tasvirlar sifatida qabul qila olsinlar. Yo'naltirilgan yorug'lik tomonidan yaratilgan yorug' va soyalar tasviri yog'duning qattiqligiga (ya'ni, yoritish qay darajada bitta nuqtadan chiqayotgandek taassurot uyg'otishiga), shuningdek, suratga olish obyektini, yorug'lik manbai va kamera o'zaro qanday joylashishiga bog'liq bo'ladi. Kadr teranligi – obyekt konturlari, kamera va ustuvor yorug'lik manbayining funksiyasidir.

Uch nuqtadan turib yoritish. Uch o'lchamlilik taassurotni nazariy jihatdan yaratish uchun uchta vazifani hal etish kerak: ya'ni shaklni aniqlash (tasvirlovchi yorug'lik), suratga olish obyektini fondan ajratish (qarshi yorug'lik), shuningdek, tasvirlovchi yorug'lik hosil qilgan soyalar chuqurligini kamaytirish (to'ldiruvchi yorug'lik yoki biroz yoritish) kerak. Mazkur texnika uch nuqtadan turib yoritish deyiladi.

Tasvirlovchi yorug'lik – yoritishning eng yorqin va eng muhim manbayidir. Tasvirlovchi yorug'lik birinchi navbatda suratga olinayotgan narsaning shaklini aniqlash uchun javob beradi. Bunga narsani ravshan yoritish hisobiga, bundan tashqari chiqarib tashlanayotgan soyalar hisobiga erishiladi. Ko'pchilik hollarda narsaning shakli haqidagi eng muhim axborotga uning umumiy yoritilishi

tufayli emas, balki uning yuzasida soyalarning joylashishi tufayli erishamiz.

Televideniye salkam ellik yildan beri mavjud, tele-tomoshabinlar ham tasvirni uzatishning muayyan usullariga oʻrganishdi. Chunonchi, yangiliklar yoki rasmiy xabarlar, odatda, telestudiyada kameraga toʻgʻri qarab oʻtirgan – boshqacha aytganda, goʻyo hech qayerda boʻlmagan suxandon tomonidan uzatiladi. Oʻrta yoki oʻrta-yirik plandan foydalaniladi. Joy va vaqt toʻgʻrisida hech qanday eslatmalar yoʻq.

Toʻldiruvchi yorugʻlik. Koʻpincha, suratga olinayotgan sahna yuqorida tavsiflanganidan murakkabroq boʻladi va bir necha yoritish asbobidan foydalanishni taqozo etadi. Agar suratga olish sahnasi haddan tashqari qorongʻi boʻlsa, yagona tasvirlovchi yorugʻlik ishni faqat yomonlashtirishi mumkin, chunki haddan tashqari ravshan yorugʻ soyalarni hosil qiladi. Bunday holda sizda kamera oʻqining ikkala tomoni boʻyicha ikkita bir xil yorqin yorugʻlik manbayidan foydalanish xayoli paydo boʻlishi mumkin. Siz suratga olish obyektining ravshan yoritilishiga ega boʻlasiz, lekin ikkala manbaning ravshanligi bir xil boʻlsa, siz hajm effektini butunlay chippakka chiqarasiz.

Qarshi yorugʻlik ikki vazifani bajaradi: suratga olish obyektini fondan ajratib, bosh va yelkalarini yorqin yogʻduning ingichka chizigʻi bilan chegaralaydi va kadr chuqurligini yaratishga yordam beradi. Qarshi yorugʻlik soch turmagi yoki kiyim shaklini aniqlashda juda katta yordam beradi, aks holda ular fon bilan qoʻshilib ketardi. Obyektivga qarshi yorugʻlikning oz qismigina tushishi sababli uni yaratayotgan asbob ravshanligi, odatda, tasvirlovchi yorugʻlik ravshanligiga teng boʻladi, koʻpincha undan oshib ham ketadi. Qarshi yorugʻlik manbayi asbob ortida va suratga olish obyektidan ancha yuqorida joylashadi. Agar qarshi yorugʻlik manbayini

obyekt boshidan haddan tashqari yuqoriga qo‘ysak, tasvirda soya va burun juda ravshan bo‘lib ko‘rinadi. Agar uni haddan tashqari pastga joylashtirsak, u obyektga yo‘naltirayotgan yog‘du kameraga tushmaydi. Agar butunlay pastga qo‘ysak, obyektiv to‘g‘risini yoritadi hamda shu‘lalar hosil qiladi va hatto uzatuvchi trubkani shikastlashi mumkin.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Asosiy yoritishni o‘lchash uchun tushayotgan yog‘duni o‘lchaydigan asbob nomi qanday ataladi?
2. Qanday yorug‘lik turlari mavjud?
3. To‘ldiruvchi yorug‘lik nima?
4. Kamera yorug‘ligi nima?
5. Yo‘naltirilgan yorug‘lik nima?
6. Tasvirlovchi yorug‘lik nima?
7. Uch nuqtadan turib yoritish deganda nimani tushunasiz?
8. Yoritish asboblari nima va ularning vazifalari qanday?

Mavzu yuzasidan topshiriq:

Televideniye va kino san’atida foydalaniladigan yoritish asboblarning turlarini topish va ularning vazifalarini bilib kelish.

REJISSOR VA RASSOM MAHORATI

Rejissurada rassom bilan ishlash eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Ma’lumki, rassomchilik san’ati ko‘p asrlik tarixga, juda katta boy madaniy va ma’naviy merosga ega. Har bir davr o‘z uslubini, ifoda usulini topadi. San’atda uyg‘onish davri, barokko, rokoko, klassitsizm, gotika va boshqa ko‘p yo‘nalishlar mavjud.

Rassomchilik san'atining qaysi turi bo'lmasin, me'moriy san'atdan tortib moybo'yoq, chizmachilik, grafika va boshqa turlar izchil ifodasini topishi kerak.

Rejissor rassom bilan ishlashda har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini, qurol-aslahalarini, kiyim-kechak liboslarini, urf-odatlarini, ijtimoiy hayotini chuqur o'rganishi, yaratgan har bir sahna va ekran asarida ularga e'tibor berishi lozim. Rassomning badiiy bezagi o'zining tashqi ifodasi hamda ichki teranligi bilan ajralib turishi kerak. Teatr san'atida mashhur teatr rassomlari rejissor bilan hamkorlikning ajoyib namunalari qoldirgan. Rejissor rejasi va rassom g'oyasining uyg'unligi yaxshi natijalarga olib keladi.

Badiiy bezak uslubiyati rejissor rejasining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Rejissor rassom bilan ishlar ekan, asar negizida biqinib yotgan yagona tasviriy ifodani topishi, tashqi obrazli ifodasini asar tabiatidan qidirishi lozim. Ifodali mizansahnalar, aktyorlarni sahna sahnida yuqoriga, ichkariga, oldiga joylashtirish, rejissor rejasini amalga oshirish rassomga bog'liq ekanligini unutmaslik kerak. Aktyor uchun harakat nuqtalari, maydonchalari qancha ko'p bo'lsa, ifoda imkoniyatlari kengayadi. Voqealarning qachon, qayerda kechishi rejissor va rassom talqiniga bog'liq.

Albatta, rassom bilan ishlash jarayonida asar ishtirokchilarining ijtimoiy kelib chiqishi, ularning kim, qaysi tabaqadan ekanligi, liboslar ifodasi ham katta rol o'ynaydi.

Qatnashuvchilarning tutgan o'rni, yashash tarzi, o'zaro munosabatlari, urf-odatlari qaysi asnoda o'z sahna ifodasini topishi kerakligi muhim ahamiyatga ega. Qaysi rang, qaysi me'moriy uslubda spektakl yechimini, shaklini izhor qiladi? Mana shu muammolar rejissor va rassom munosabatlari o'rtasida o'z rivojini topadi. Badiiy bezakni yaratishda

ijodkorlarga muzeylar, kutubxonalar, suratli ko‘rgazmalar, kinoxronika, matbuot, jurnal, gazeta, tasvirga olingan rasmlar yordam beradi. Bu ikonografik materiallarni o‘rganish deyiladi. Spektaklning obrazli ifodasi, xarakteri, uslubi, voqealar kechishi, makon va zamon hamkorligi jiddiy izlanishlar natijasida o‘z samarasini beradi.

Ko‘pincha, rassom va rejissor hamkorligi eskizi stol atrofida va maketlardan boshlanadi. Kelgusi sahna asarining maket va eskizi stol atrofida muhokama qilinib, o‘ylangan mizansahnalar, liboslar ko‘rinishi, nur bilan yoritilishi, sahnaning rang ifodasi, spektakl sur‘ati, kartinalarning joylashishiga bog‘liqligi maket va eskizlarda o‘ylab chiqiladi. Jihoz va ashyolarning joylashishi aktyor ijrosiga yordam berishi kerak. Umuman, sahnadagi barcha shart-sharoit aktyorning qiyofa yaratishiga imkon tug‘dirishi lozim. Pardoz-andoz, kiyim-kechak, yasama jihozdan tortib haqiqiysigacha, barcha-barchasi rejissor rejasining ro‘yobga chiqishiga, aktyorning ijrosiga qaratilishi kerak. Rassomning barcha izlanishlari asarning mag‘zini tasvirda ifodalashga, yechimining topilishiga qaratilishi lozim. Mo‘jizakor sahnaning imkoniyati keng. Rejissor va rassom hamkorligi – mana shu imkoniyatlardan unumli foydalanib san‘at asarlarini yaratishdir.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Rejissyor rassom bilan ishlash jarayonida nimalarga e‘tibor berishi zarur?
2. Rassomning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Televideniye, kino va teatr rassomlari ishidagi o‘xshashlik va farqli jihatlari nimada?
4. Televizion ko‘rsatuvlar tayyorlash jarayonida rassom aynan nimalarga e‘tibor qaratishi zarur?

MUSIQA VA SURAT

Intershovqin hosil qiladigan ishonchlilik va hayotiylik bilan kontrastda musiqa – televizion dasturning unsurlaridan biridir. Teledastur esa, qanchalik g‘alati tuyulmasin, ko‘pincha musiqasiz, xuddi intershovqin bilan bo‘lganidek, ma’nosiz, jonsiz va notabiiy bo‘lib chiqadi! Asosan, kino va televideniye bizni videoqatorni musiqiy jo‘rlikda ko‘rishga o‘rgatib qo‘ygani uchun ham musiqaning mavjudligi bizga tabiiy bo‘lib ko‘rinadi. Musiqadan foydalanish teletomoshabinlar juda ko‘p vaqtdan buyon ko‘nikib qolgan shartlilikdir. Quvlash sahnasini, masalan, hozir jo‘shqin musiqiy jo‘rliksiz tasavvur qilib ham bo‘lmaydi.

Musiqadan asosan, misol uchun, tilga olingan quvlash sahnasida kayfiyatni yaratish yoki ta’kidlash uchun foydalaniladi. Musiqa harakatning joyi yoki vaqtini belgilaydigan muhim axborotni ma’lum qilishga ham qodir. Musiqiy jo‘rliksiz cho‘l shunchaki cho‘ldir. Lekin tegishli musiqiy fon yordamida uni Amerikaning olis g‘arbidagi sahroga, qadimgi Osiyo ko‘chmanchilari sahrosiga, Oydagi dashtga yoki koinotning ilmiy-fantastik manzarasiga aylantirish mumkin.

Invershovqin singari musiqaning muhim xislati shundan iboratki, u dasturning audiovizual tuzilmasiga yana bir o‘lchovni qo‘shadi. Bunday o‘lchovlar qancha ko‘p bo‘lsa, dasturni ko‘rishga qiziqish shuncha oshadi. Masalan, musiqa yordamida cho‘zilgan va ifodasiz bo‘lib ko‘rinadigan sahnaga g‘ayrat bag‘ishlash mumkin.

Musiqadan teledasturlarda juda ko‘p hollarda mavzular bo‘yicha ham foydalaniladi. Dasturni anonslaydigan musiqiy muqaddimalar ayniqsa esda qoladi va foydalidir.

Biz, ehtimol, davlat boshlig'i bilan intervyuda musiqaviy fonni ma'qullamasmiz, lekin ana shu intervyuning bir qismi bo'lgan yangiliklar soni boshlanishidagi musiqani mamnunlik bilan qabul qilamiz. Buning sababi shundaki, bunda musiqa mo'ljalning muhim rolini bajaradi. U bizni boshqa ko'rsatuv boshlanayotganidan ogohlantiradi. Shu sababli u vazifasi tomoshabinlar e'tiborini jalb etish bo'lgan muqaddimaning tarkibiy qismi rolini muvaffaqiyat bilan o'ynaydi.

Shunga o'xshash tarzda dastur ichida musiqiy parchalardan foydalanish mumkin. Birdan ovozsiz sahnada yangray boshlagan musiqa bizga hozir qandaydir yangi narsa yuz berishini yoki biz tomosha qilayotgan sahnada biror narsa jiddiy ravishda o'zgarganini xabar qiladi. Bundan tashqari, musiqa ekranda yuz berayotgan voqealarga shunchaki e'tiborni jalb etishi mumkin.

Musiqa va tovush effektlari

Suratga olishga tayyorgarlikning eng boshida sizga musiqa yoki tovush effektlari zarur bo'lish-bo'lmasligi masalasini hal etish kerak. Musiqa yoki effektlarni tanlash matn parchalari yoki videoqatorni tanlash kabi muhimdir.

Mavjud musiqiy yozuvlardan foydalanishga ma'lum ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish zarur. Gap shundaki, bu musiqiy yozuv tomoshabinlarning ko'pchiligiga ma'lum bo'lishi va ularda shaxsiy taassurotlar uyg'otishi mumkin. Birgina ommabop musiqa bir kishida romantik oshiqlik to'g'risidagi, boshqasida esa og'ir kechgan nikohni bekor qilish to'g'risidagi xotirani uyg'otishi mumkin. Bir odam uchun, demak, u baxt timsoli bo'lsa, boshqasida judolik hissini uyg'otadi. Bu hol, odatda, original musiqiy fonogramma

foydasi uchun eng kuchli dalildir. Sizning filmingiz uchun maxsus yozilgan musiqa faqat sizning niyatingizni ifodalashga, uni ko'rsatishga xalal bermasdan, balki yordam berishga xizmat qiladi.

Agar siz ekranda yuz berayotgan voqealarga e'tiborni jalb etish yoki kuchaytirish uchun musiqadan foydalansangiz, u kayfiyat, harakatning joyi va vaqti ma'nosida videoqatorga muvofiq kelishini kuzatish zarur.

Musiqiy hamrohlik bobidagi oxirgi ogohlantirish qo'shiqlardan foydalanishga daxldor. Odatda, dasturga qo'shiqqa qaraganda cholg'u musiqasini qo'yish osonroq, buning sababi juda oddiy: qo'shiq mazmuni mos kelmaydigan yoki tomoshabinlarni chalg'ituvchi bo'lishi mumkin. Agar siz musiqadan shunchaki fon sifatida foydalanmoqchi bo'lsangiz, shuni e'tiborda tutingki, tomoshabinlar doim qo'shiqlar matniga quloq solishadi. Shuning uchun qo'shiqlar tomoshabinlar e'tiborini sharh yoki muloqot mazmunidan juda ham chalg'itadi. Tomoshabin barcha so'zlarini oxirigacha tinglaganiga qadar qo'shiq to'xtatib qo'yilsa, bundan yomoni yo'q. Shuning uchun qo'shiqlardan faqat sizga ularning matni kerak bo'lganda, aytaylik, tarixiy aniqlik maqsadida yoki matn ekrandagi voqeaga e'tiborni jalb etgan yoki uni tavsiflagan paytda foydalangan ma'qul.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Televizion ko'rsatuvlar tayyorlash jarayonida musiqaning qanday o'rni bor?
2. Musiqa va tovush effektlari deganda nimani tushunasiz?
3. Musiqiy fon harakatning joyi va vaqtini ifodalashi mumkinmi?

4. Musiqiy fonlarni qanday hollarda qo‘llash noo‘rin hisoblanadi?
5. Tanlangan musiqa hamma tomoshabinlarda bir xil taassurot uyg‘ota oladimi yoki aksincha?

Mavzu yuzasidan topshiriq:

Biror-bir televizion ko‘rsatuv yoki filmda foydalanilgan musiqalarni tahlil qilib o‘rganib kelish.

MIKROFONLAR

«Mikrofon» so‘zi yunonchadan olingan bo‘lib, mikros – kichkina, phone – ovoz ma’nosini anglatadi. Mikrofonlarning asosiy vazifasi ovoz tebranishini elektr toki tebranishiga aylantirib berishdan iborat. Mikrofonlar tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, «mikrofon» nomi 1827-yilda buyuk britaniyalik ixtirochi Charlz Uitstoun tomonidan taklif etilgan. Ammo u hozirgi mikrofonlar turkumiga mutlaqo bog‘liq emas. Undan so‘ng 1876-yilda ovoz to‘lqinlari harakatini saqlab turuvchi suyuq uzatuvchi moslama kashf qilindi. 1877-yil 4-martda amerikalik Emil Berliner birinchi bo‘lib, ko‘mirli mikrofon namunasini yaratdi. Eng ommalashgan ko‘mirli mikrofonlar turkumi Entoni Uayt (1890) tomonidan ixtiro qilingan. Uning ixtirosidan yaqin kunlargacha telefon trubkalaridagi mikrofon sifatida foydalanilgan. Buning uchun muayyan elektr toki shart bo‘lmagan. Birinchi tasmali mikrofon 1942-yilda ixtiro etildi. Amerika ovoz kompaniyalarining birida yaratilgan ushbu mikrofon faqat studiyalarda ishlatilar edi. Chunki uning og‘irligi 3,5 kg ni tashkil etgan. Hozirgi kunda esa, asosan, kondensatorli va dinamik mikrofonlar ishlatilmoqda.

Mikrofonning quyidagi turlari mavjud:

1. Ko‘mirli mikrofon.
2. Induksion g‘altakli mikrofon.
3. Tasmali mikrofon.
4. Kondensatorli mikrofon.
5. Pyezoelektrik mikrofon.
6. Elektromagnit mikrofon.
7. Dinamik mikrofon.
8. Qadaladigan (ilmoqli) mikrofon.

Quyida ularga batafsil to‘xtalib o‘tamiz.



Ko‘mirli mikrofon. Ko‘mirli mikrofon 1877-yil Emil Berliner tomonidan ixtiro qilingan va Devid Xyuz tomonidan takomillashtirilgan. Ko‘mirli mikrofon mikrofonlar ichida birinchi bo‘lib ixtiro etilgan bo‘lib, ko‘mir kukunining qisilishi natijasida unga kelayotgan bosim orqali ovozga aylangan. Lekin uning ovoz uzatish darajasi past, diapazoni ingichka, chastota ishlab chiqarishi bir xil bo‘lmagaligi sababli kam ishlatilgan. Bu mikrofonlar yaqin kunlarga telefon apparatlarida keng foydalanib kelingan. Afzalligi – muayyan elektr tokini talab etmaydi.

Induksion g‘altakli mikrofon. Bu mikrofonlar ishlash jarayonida elektromagnit induksiya paydo bo‘ladi, ya‘ni

akustik energiyani elektr energiyaga aylantiradi. Energiya magnit maydonidagi g'altakning harakati ostida doimiy magnit maydonini hosil qiladi. Bu harakatlanuvchi g'altak yoki tasma bo'lishi mumkin. Keyingi vaqtda lentali mikrofonlar professional yozuvda ishlatilmoqda.



Kondensatorli mikrofon. Bu mikrofonlarning ularga o'rnatilgan kondensator hajmiga bog'liq. Unga ovoz to'lqinlarining kelib urilishi natijasida uning plastinasi harakatga keladi, ya'ni ovoz tebranishi hosil bo'ladi. Kondensatorli mikrofonlar bilan ishiash davomida ehtiyotkor bo'lish lozim. Chunki, bunda kapsul tarang holatda bo'lib, tirgak va mikrofonlarni surish, ularni almashtirish, kondensatorlarni ishdan chiqarmaslik maqsadida tavsiya etilmaydi. Shu sababdan uning korpusiga taqillatish yoki mikrolonga pufdash man etiladi. Barcha ishlarni o'chirilgan quvvat manbayida olib borgan ma'qul.

Pyzeoelektrik mikrofon. Ushbu mikrofon kristalli mikrofon deb ham ataladi. U shunday effektda ishlaydiki, bunda unga elektr zaryadi yuborilganda uning ustki qismidagi kristall jism ovoz bosimi ostida deformatsiyalanadi. Bu zaryadlarning kattaligiga qarab u ham elektr zaryadi, ham pyzeoelement barobar deformatsiyalanadi va natijada ovoz kuchi paydo bo'ladi.

Elektromagnit mikrofon. Bu turdagi mikrofonlarda ovoz magnit maydonining o'zgarishi natijasida, ya'ni harakatdagi

yakor orqali paydo bo‘ladi. Mikrofon XX asrning so‘nggida yaponiyalik olim Yoguti tomonidan, ixtiro qilindi. Bunda dielektrik maxsus materialga ishlov berilgandan so‘ng unga elektr zaryadi yuboriladi va u kondensatorga ulandi.



Dinamik mikrofon. Mazkur mikrofon tovush g‘altagining doimiy magnitdagi magnit maydon tarqalishining o‘zgarishi asosida ishlaydi. Mikrofon diafragmasi g‘altak bilan qattiq mahkamlangan bo‘lib, elektromagnit induksiyasi qonuniga binoan unda tovush ovoz bosimiga proporsional o‘zgarish paydo bo‘ladi. Dinamik mikrofonning sifat ko‘rsatkichlari: uning uncha katta bo‘lmagan o‘lcham va og‘irlikka ega ekanligi, mustahkamligi, ortiqcha yuk va mexanik



silkinishlarga bardoshliligi. Shu bois u studiyalarda, sahna va ochiq maydonlarda keng qoʻllaniladi. Dinamik mikrofonlarga tasmali mikrofonlarni ham kiritish mumkin. Bunda uning tirqishiga oʻralgan yupqa qat-qat tasmacha tebranib, uning chetlaridagi elektr taranglik paydo qiladi va moslashuvchi transformatoridan soʻng ekranlangan kabel orqali elektr kuchaytirgichga uzatiladi.



Tasmali mikrofonlar yaxshi koʻrsatkichga ega boʻlsa-da, yuklamaga chidamsiz. Bu mikrofonlar yaqin masofalarda ham past chastotalarni ajratib uzatadi. Shuning uchun ularni ochiq maydonlarda ishlatib boʻlmaydi.

Ovoz yozish studiyasida eng ommabop mikrofonlar kondensatorli mikrofonlardir. Bunda tovush qabul qilishning bir tekisligida havoli kondensatorni namoyon etuvchi kapsul muhim omil sanaladi. Uning bir plastinasi harakatsiz boʻlsa, boshqasi yengil, ixcham boʻlib, tovush toʻlqinlari taʼsirida tebranadi. Harakatchan membranalar ikkita boʻlishi mumkin. Kondensatorli mikrofonlar uchun quvvat manbayi mikrofonga ovoz ekranlangan kabel bilan qoʻshiluvchi maxsus toʻgʻrilovchi moslama orqali puldan olinadi.

Soʻnggi vaqtda uzun kabel va shnurlarsiz ishlovchi radiomikrofonlar ham keng tarqalmoqda. Ular radio va telekoʻsatuvlar, tok-shoularda va konsertlarda, ommaviy tantanalarda qoʻllaniladi.

Alohida guruhni tashkil etuvchi ilmoqli mikrofonlar suxandon va boshlovchilar uchun nihoyatda qulay hisoblanadi.

Mikrofondan foydalanish borasida ayrim ko‘rsatmalar.

Mikrofonlarni ularning soni va texnik xarakteristikasiga qarab yozuv vaqtida ishlata bilish eng murakkab va zarur shartlardan biridir. Bu kabi muammolar bilan ovoz rejissorlari va operatorlari har kungi ish jarayonlari davomida to‘qnash keladilar.

Ma’lum bo‘lishicha, hech bir adabiyotda mikrofonlarni o‘rnatishning batafsil prinsipi (sxemasi) berilmagan. Bunda professional ovoz rejissorlari va operatorlari mikrofonlarning ishlash prinsipi va o‘z bilimlariga tayangan holda o‘rnatishlari mumkin. Har bir makonning akustik parametri bir-biridan farq qilishi tufayli ovoz rejissorlari yuzaga keluvchi qo‘shimcha muammolarni hal qilishlariga to‘g‘ri kelmoqda. Qoniqarli mikrofon repetisiyasini tashkil qilib, ovoz yozuvini bir necha bor amalga oshirgandan so‘nggina sifatli natijaga erishish mumkin. Bunda studiyada ovoz yozish tajribasiga ega bo‘lish, musiqiy sozlarning jarangi, ularning akustik tuzilishi va turli ko‘rinishdagi musiqiy dasturlarni yaxshi bilish lozim bo‘ladi. Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqorida aytib o‘tilganlarga rioya qilinsa, boshqa rejissorlarga ham shu usulda ovoz yozishni tavsiya etsa bo‘ladi.

Eng avvalo, ovozni sifatli yozish uchun studiyani ijrochilar bilan to‘ldirish me’yoriga amal qilish kerak. Musiqiy yozuvlarda har bir ijrochiga 35–50 m³, 50 kishilik orkestr uchun 2000 m³, opera, oratoriya, simfonik asarlarni yozish uchun ixtisoslashgan 150–200 kishilik jamoaga 6000–10000 m³ hajmdagi studiya talab qilinadi. Bu talablarga javob bermagan studiyalarda ovoz yozish sifati past bo‘ladi. Ovoz sifatli chiqishida akustik joylashuv ham muhim rol o‘ynaydi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Mikrofon nima va uning vazifalari qanday?
2. Mikrofonlarning paydo bo'lish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Mikrofonlarning qanday turlari mavjud?
4. Mikrofonlardan foydalanish jarayonida nimalarga e'tibor berish zarur?

TELEVIZION KO'RSATUVLARNING TA'SIRCHANLIGINI ANIQLASHDA BAHO MEZONLARI

Ko'rsatuvdan maqsad:

1. Ko'rsatuvga, uning har bir lavhasiga jamoatchilik e'tiborini tortish.
2. Jamoatchilik fikrini uyg'otish.
3. Tomoshabinning ijtimoiy faolligini oshirish.
4. Jamoatchilik ongini shakllantirish.

Ko'rsatuvdagi niyatlar:

1. Xabar rerish.
2. Tarbiyalash.
3. Ma'rifiy.
4. O'rgatish.
5. Tashkil qilish.
6. Ma'lumot berish.

(Ko'rsatuvda shu niyatlarning birontasi bo'rtib chiqishi mumkin).

Mavzudan inobatga olinadigan holatlar:

1. Voqealarni yoritishda xolislik.
2. Muallifning to'g'ri va adolatli nuqtayi nazari.

3. Muallifning voqeaga shaxsiy munosabati.
4. Muallifning malakaviy loyiqligi.
5. Mavzuga yangicha yondashuv.
6. Mavzuni chuqur tadqiq qilish.
7. Mavzuning dolzarbligi, hozirjavobligi.
8. Mavzuda axborotning serobligi.

Ko'rsatuv shakli:

1. Mavzuni dramaturgiyaning qonun-qoidalariga bo'y-sundirib tashkil qilish.
2. Badiiy obrazning borligi.
3. Ifodali holatlarning borligi.
4. Televideniyaning o'ziga xos xususiyatlari va ifodali vositalaridan unumli foydalanish.

Ko'rsatuvning ta'sirchanligini oshirishda kerakli bo'lgan qo'shimcha omillar:

1. Ko'rsatuv yo'nalgan tomoshabin auditoriyasini bilish.
2. Boshlovchining sharhi.
3. Mazmun va shakl birligi.
4. Mavzuda ko'tarilgan fikrlarning ravonligi, ommabopligi.
5. Ruhiy holat va sur'at.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Ko'rsatuvlarni tayyorlashdan ko'zlangan maqsad nimalarda?
2. Ko'rsatuvlarning niyati nimalardan iborat?
3. Olingan ko'rsatuv mavzusida qanday holatlar inobatga olinadi?
4. Ko'rsatuvlarning qanday shakllari mavjud?
5. Ko'rsatuvning ta'sirchanligini oshirishda qanday qo'shimcha omillar bor?

Mavzu yuzasidan topshiriq:

Mavzudan kelib chiqqan holda biror ko'rsatuvni atroflicha tahlil qilib kelish.

AXBOROT JANRLARI

Janr bu haqiqiy hayotni, bor voqelikni ifoda qilishda ma'lum bir qoliplar evaziga, turg'un bir belgilarga asoslangan mazmun va shakllar birligini aniqlovchi ijro, ijoddir. Har bir mavzu o'z ifoda shaklini, aniq va o'ziga xos tasvirda ijroda ifoda vositalarini topishi kerak. Qadimdan badiiy adabiyot o'z janrlariga ega: roman, qissa, hikoya, g'azal, muxammas va h.k. Teatr san'atida asrlar davomida janr shakllandi, maromi va ifodasini topdi. Fojia, komediya, drama, opera, balet va ularning har xil turlari paydo bo'ldi, rivojlandi.

Televideniye va radioda ko'rsatuvlar tarkibini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Axborot janrlari.

Bu janrlar sodir bo'lgan voqealarni o'z holicha olib ko'rsatish, muhrlab qo'yish xususiyatlariga ega. Voqeani qisqa va lo'nda tomoshabinga yetkazishi, izchillik, xolislik va oshkoralik bu turkum ko'rsatuvlarning asosiy mezonini va o'ziga xosligidir («Axborot», «Yangiliklar», «Davr», «Poytaxt» va h.k.).

2. Publitsistik janrlar.

Bu turkum ko'rsatuvlar dramaturgiya qonunlariga bo'ysungan, tayyorlanish jarayonida rejissor tomonidan mavzuni bir maqsadga yo'naltirgan, reja asosida amalga oshirilgan bo'ladi.

(«Tahlilnoma», «Yuzma-yuz», «Inson va qonun» va h.k.).

3. Badiiy janrlar.

Muallif tasavvurida o‘ylab topilgan, rejissor tomonidan sahnalashtirilgan mavzular, loyihalar. («Otalar so‘zi-aqlning ko‘zi», teleseriallar va h.k.)

Hayotiy voqelikni umumlashtirish, ularni sarxil qilib tartibga solish, har xil janrlarda tomoshabinga yetkazish rejissor va jurnalistning mahoratiga bog‘liq ekanligini ko‘ramiz.

Demak:

axborot – qayd qilayapti, muhrlayapti, ta’kidlayapti;

publitsistika – umumlashtirayapti, tahlil qilayapti;

badiiy ijod – ifodalayapti, yaratayapti.

Televizion janrlarning vujudga kelishi ikki manbaga asoslanadi:

Birinchisi – avvalgi adabiyotdagi an’anaviy janrlarning televideniyeга kirib kelishi. Misol: ocherk – adabiyotda va televideniyeда.

Ikkinchisi – yangi televizion texnologiyalarning kirib kelishi tufayli paydo bo‘lgan janrlar.

Masalan: ko‘chma televizion stansiyalar; reportaj, namoyish, to‘g‘ridan to‘g‘ri efirga uzatish va h.k.).

Axborot janrlari.

Axborot janrlaridan asosiy nuqtayi nazar korxonalariga, muassasalarga, ishlab chiqarish jarayonlariga, maishiy mavzularga, tadbirlarga qaratilgan bo‘ladi. Voqealarni ko‘rsatishdan maqsad ommani boxabar qilish, sodir bo‘lgan hodisa va jarayonlardan voqif qilish. Axborotda asosiy mezon tezkorlik, to‘g‘ridan to‘g‘ri olib ko‘rsatish, tomoshabin voqealar shohidi bo‘lishini ta’minlashdir.

Joylardan reportajlar olib borish, voqealarga sharhlar berish, ishtirokchilardan intervyular olish, suhbatlar uyushtirish axborot asosini tashkil qiladi.

Sharh – muhim voqealarga, ijtimoiy-siyosiy hodisalarga, ilmiy, madaniy-maishiy, sport mavzulariga, tadbirlariga shu soha bilimdonining chiqishi, sharh berishi, ommaga tushuntirishi (kadrda, kadr ortida).

Intervyu – bir kishi yoki bir necha kishi bilan jurnalistning muloqoti. Tomoshabin bu muloqotning guvohi. Bu yerda boshlovchi bilan suhbatdoshning bilim saviyasi, keng qamrovligi, qiziqtiruvchi savollariga javob bera olishi, mavzuga aloqadorligi muhim ahamiyatga ega. Rejissor ham, jurnalist ham shaxs bilan ma'naviy va ruhiy aloqani o'rnatish kerak. Intervyuda samimiyat, hozirjavoblik yo'qolmasligi kerak. Kutilmaganda to'satdan tashkil qilingan muloqot tomoshabinga qiziq.

Presskonferensiya – ko'pchilik bilan muloqot. Bunda rejissor bilan jurnalist katta tayyorgarlik ko'rishi kerak. Mavzu ko'p qirrali, uni har tomonlama yoritish lozim. Ssenariy rejasi, uning kompozision tuzilishi, beriladigan savollar ko'lamini muammolar yechimi, ishtirokchilar bilan muloqot shakli o'ylangan bo'lishi kerak.

Reportaj – sodir bo'layotgan muhim voqeani to'g'ridan to'g'ri o'z holicha aniq va jo'shqin ko'rsatish (konsert, futbol, majlis, bayram va h.k.).

Reportaj turlari.

1. To'g'ridan-to'g'ri reportaj – televizion texnika vositasida biror voqeani izohsiz, ijodkorning aralashuviz, ishlov bermasdan kadrlashtirib uzatish, bevosita ko'chirish, muhrlash tayyorlash jarayoni quyidagilarni talab qiladi:

- a) mavzu va joyni tanlash;
- b) texnik imkoniyatlarni o'rganish;
- d) kameralar joylashadigan nuqtalarni aniqlash;

e) voqea dasturi bilan tanishish.

Bularni amalga oshirishda rejissor bilan operatorning planlarni tanlashi, ifodali imkoniyatlardan foydalanishi, ruhiy mazmun berishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Voqeani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatuvda montaj jarayoni va uning talqini muhim rol o‘ynaydi (tantanali majlislar, ko‘rgazmalarning ochilishi, festivallar, universiadalar).

Voqeiy reportajlar – bu reportajlar boshlovchi-suxandon tomonidan sharhlanadi. Bunda rejissor tomonidan jurnalistga katta talablar qo‘yiladi. Olib boruvchining voqeadan boxabarligi, keng tushunchaga ega ekanligi, xilma-xil hujjat va manbalardan foydalanib tomoshabinga yetkaza olishi ahamiyatli. Bunday holatlarda rejissor va operator jurnalist gaplarini ochib berishi, tasvir bilan to‘ldirishi, nozik tomonlarini ilg‘ab olishi, unga ulgurishi muhimdir.

Muammoli, tashkil qilingan reportajlar – bunday reportajlarda qatnashuvchilar tanlanadi, voqealar sodir bo‘lish joyi aniqlanadi, oldindan tayyorgarlik rejalashtiriladi. Yozilgan ssenariyga asoslanib rejissor va muallif-jurnalist muammoni ko‘taradi, tahlil qiladi, yechimini topadi. Tomoshabinga havola qilinadi. Bunday reportajlar avvaldan o‘rganiladi va mashqlar qilinadi.

Publitsistik janrlar.

Bunday ko‘rsatuvlarning asosini aniq hujjatlar, haqiqiy hayotiy lavhalar tashkil etadi. Muallif-jurnalistning munosabati va bu voqealar talqini, uning nuqtayi nazari muhim hisoblanadi. Voqea hujjatlarini to‘plash, ularni tanlash, qayd qilish hamda tahlil etish rejissor va jurnalist mahoratiga bog‘liqdir.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Janr nima?
2. Televizion ko'rsatuv va radioeshittirishlar tarkibini necha guruhga bo'lish mumkin va ular qaysilar?
3. Axborot janrlari nima?
4. Axborot janrining asosini nimalar tashkil qiladi?
5. Publitsistik va badiiy janrlarni izohlab bering.

Mavzu yuzasidan topshiriq:

Televizion ko'rsatuv va radioeshittirishlarga xos bo'lgan janrlarga oid ko'rsatuvlarning har biriga misollar topib kelish.

TELEVIDENIYE DASTURLARIDA PUBLITSISTIK KO'RSATUVLARNI TASHKIL QILISH

Ommaviy axborot vositalari ichida televideniye katta rol o'ynaydi, ayniqsa, so'nggi yillarda tomoshabin e'tiboriga havola etilayotgan badiiy, publitsistik ko'rsatuvlar, hujjatli mavzularga asoslangan chiqishlar, tomoshalar televizion dasturlarning 70–80 foizini tashkil qilib, insonlarning ma'naviy kamol topishida, uning tarbiyasida katta ahamiyat kasb etmoqda. «Qishloq hayoti», «Hayot va qonun», «Tahlilnoma», «Telemuloqot», «Yuzma-yuz», «Muvozanat», «Munosabat», «Tafsilot», «Himmat», «Telemuloqot», «Gap chiqdi», «Yaxshilik» va boshqa ko'pgina ko'rsatuvlar teledasturlarda mustahkam o'rin olib tomoshabinga namoyish qilinmoqda. Shu o'rinda ko'rsatuvlarning tayyorlanishi, efirga uzatilishi, sifati professional darajasi, jurnalistika va rejissura ijodi qay

yo'sinda kechayapti, televideniyeining qonun va qoidalariga qaysi darajada javob beryapti, degan savollar tug'iladi, muammolari o'rtaga tashlanyapti. Badiiy ijodning o'z qonun-qoidalari, sir-asrorlari bo'lganidek, televizion publitsistik ko'rsatuvlarida ham dramaturgiyaning qonun-qoidalariga, kompozitsion tuzilishiga, janriga, tiliga e'tibor berish, shu asosda sayqal berish telerejissor faoliyatiga bog'liqdir. Hozirgi paytda ko'rsatuvlarning shoshma-shosharlik bilan yuzaki, aniq rejalangan holda tayyorlanayotganini kuzatish mumkin. Rejissor xom-xatala, me'yoriga yetmagan, mendan ketguncha, egasiga yetguncha qabilida tasvirga tushirib tez payvand qilib efirga uzatayotganini ko'rish mumkin. Na aniq bir reja bor, na aniq maqsad. Yengil-yelpi tayyorlash jarayoniga o'tgan ijodiy guruh, chala mahsulni tamoshabinga uzatyapti, zalvorsiz tumtaroq gaplardan tashkil topgan ko'rsatuvlar favqulodda topilgan tasvir va manzaralar efir vaqtini to'ldirib yotibdi. Badiiy ijodda talabchanlikning susayishi, professional kadrlarning yo'qligi, maktab ko'rmagan kadrlar kelib qolganligi tufayli har maqomga yo'rg'alanayotgani kishini o'ylantirib qo'yadi. Qalb qo'risiz yaratilgan, loqayd tayyorlangan ko'rsatuv qanday qilib tomoshabinni larzaga solishi mumkin? Duch kelgan tomonga otilgan o'q qanday qilib nishonga tegishi mumkin, nomiga efirga uzatilayotgan ko'rsatuv kimni hayajonga solishi, lol qoldirishi mumkin? Hozirgi kunda sifat mezoni birinchi o'ringa chiqqanda, bu jarayon qachongacha davom etishi mumkin? Televideniye rejissurasida ijtimoiy, siyosiy-publitsistik ko'rsatuvlarni tayyorlashda nimalarda oqsoqlanayapti? Bu muammolarning yechilishida, meningcha, quyidagi masalalarga e'tibor berish kerak:

1. Rejissorlik shunchaki amaliyotchi kasbigina emas, balki dunyoqarashi shakllangan ijodkor shaxs bo'lishi

kerak. Teatrda, kinoda haqiqiy san'at asarini yaratadigan shaxs bu rejissor bo'lsa, televideniya ham kichik bir ko'rsatuvni haqiqiy televideniya asarga aylantiruvchi – rejissordir. Televideniya tasvir kadrlardan iborat. Har bir kadr ma'lum bir ma'noga ega bo'lishi, mazmun kasb etishi zarur. Rejissor shaxs sifatida o'sha kadrda yuk berishi, ko'rsatuv zalvorli kadrlar atrofida qurilishi, bu uning dunyoqarashiga, tafakkuriga, idroq kuchiga bog'liq ekanligini unutmazlik kerak. Avvalambor ko'rsatuvning plastik yechimini topish lozim. Nega ko'rsatuvlar bir-biriga o'xshash, bir qolipdan chiqqanday takrorlanadi, chunki har bir ko'rsatuvning o'z plastik yechimi topilmaganida, uning o'ziga xos obrazlik talqini yetishmaganida rejissura nuqsonlarini ko'rish mumkin. Ko'rsatuvlarning ruhiy konsepsiyasi, marom tuzilishi rejissuraning asosiy negizlaridan hisoblanadi. Ko'pincha, voqealarning har xil maromda kechishini, uzuq-yuluq lavhalarda ko'rish mumkin. Marom, sur'at, ruhiy yo'nalish ekran obrazliligi rejissor mahoratining asosiy omilidir. Bu topilmalarsiz rejissor qancha urinmasin ko'rsatuv jozibali, qiziqarli chiqmaydi. Rejissor e'tibor berishi kerak bo'lgan yana bir jihat bu – ovozlantirish masalasidir. Ovoz va tasvirning uyg'unligi, bir-biriga mutanosibligi, ularning ruhiy holati ko'rsatuvning shakl-shamoyilini tashkil qiladi. Ba'zan so'z bilan tasvir biri bog'dan, biri tog'dan ekanligini kuzatamiz. Bu ham rejissura ijodining qirralaridan hisoblanadi. Qachonki, so'z tasvirni to'ldirsa, tasvir so'z zamirini ochib bersa, ma'no mazmunni kashf etsa, to'laqonli kadr bo'ladi, san'at asari darajasiga ko'tariladi. Kino va teatr asarlarida mana shu holatlar yuksak darajaga ko'tarilgan, televideniyaning kundalik mahsuli hali bu imkoniyatlarga ega bo'lmayapti. Rejissor bunga intilishi: ovoz va ohang, tasvir va so'z ifoda vositalarining

yorqin holatlarini topishi kerak. Rejissor hujjatli publitsistik mavzular ustida ishlaganida uning saralash imkoniga e'tibor berish kerak. Hamma hujjat ham ekran yuzini ko'rishi kerak degan gap kelib chiqmasligi lozim. Saralash, did bilan saralash, voqeyilikni ochiq va oydin, aniq faktlarda ko'rsatuvchi kadrlar bilan saralash rejissor mahoratining qirralaridan hisoblanadi. Suratli lavhalar, arxiv hujjatlari, reproduksiyalar va boshqa ishlarning tasviriy ifodasini topish, tomoshabinni jumbushga keltiruvchi holatlarni qidirish rejissorlik san'atining kalitidir. O'ylangan maqsad va reja asosida ishtirokchilar bilan ishlash, me'yoriga yetkazib ekranga uzatish, ularning hammasi avvaldan rejissor ssenariysida muhrlangan holda bo'lishi kerakligi hozirgi televizion rejissuraning muammolaridan biri ekanligini qayd qilish lozim.

2. Televizion rejissuraning muammolaridan yana biri bu montaj masalasidir. Avvalo, montaj bu rejissorning tili, mavzuni efirga uzatish vositasi, o'z nuqtayi nazarini kadrlashtirish hisoblanadi. Kino san'atida bu uslubdan mohirona va san'atkorona foydalangan ko'p asarlarni, rejissorlarni bilamiz, ular montaj san'atini yuksak darajaga ko'targan. Televideniye ham bu san'at uslubidan o'z filmlarida, ko'rsatuvlarida ijodiy yondashib mohirona foydalanib kelayapti. Ayniqsa, klip, roliklarning paydo bo'lishi, komputer texnikasining rivoji bu uslubning keng imkoniyatlarini ochib berdi. Montaj uslubining zamonaviy shakllarini keltirib chiqardi, montaj yordamida muallif va rejissor nuqtayi nazari, fikri ifodalanib yaxlit ma'naviy ta'sirga ega bo'ldi. Lekin bu imkoniyatlardan hozirgi publitsistik ko'rsatuvlarda unumli va to'g'ri foydalanilayapti deb bo'lmaydi. Ko'rsatuvni kadrlashtirish, uning kompozitsion tuzilishiga e'tibor, montaj uslubiyatlari pala-partishlikdan iborat bo'lib qolayapti, izchillik, montaj sur'ati aniq maqsad yo'lida

emas. Nima uchun, nega shu kadr efir yuzini ko'rayapdi, uning tadrijiy rivoji, yakuni qanday? – mana shu savollarga javob topolmaysiz. Deyarli barcha ijtimoiy, siyosiy publitsistik ko'rsatuvlarda shu holatni ko'rish mumkin. Bir qolipga tushgan, ko'rsatuvdan ko'rsatuvga takror va takror bir xil kadrlar, zerikarli tasvirlar tomoshabinda befarqlik, loqaydlik uyg'otmoqda. Montaj san'ati tomoshabinni larzaga keltirishi unda qiziqish uyg'otishi, lol qoldirishi kerak. Biz, ko'pincha, parallel montaj, majoziy montaj, harakatdagi montaj, kadr ichi montaji, kadrlararo montaj, kesishma montaj kabi montaj turlaridan o'rinli foydalanmaymiz. Umumiy, o'rta, yirik planlarning maxsus effektlarini ishlatmaymiz. Hatto, ovoz va tovush planlarining ham ta'sir kuchini, ohang holatlarini, so'z va so'z zamiridagi ma'nolarni obrazli kadrlarda ochmaymiz. Makon va vaqtning ifodasini san'atkorona kadrlarda qidirmaymiz. O'rniga sayoz va quruq kadrlarni efirga uzatamiz. Montaj san'atining maktabini televizion rejissor o'tamas ekan, u har muqomga yo'rg'alayveradi. Nazariyot bilan amaliyot birlashib omixta bo'lmas ekan, haqiqiy televizion asar yuzaga kelmaydi.

3. Yana eng muhim masalalardan biri televizion dramaturgiya asoslarini o'zlashtirish muammosidir. Hozirgi publitsistik ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuvlarda ko'proq jurnalist va qahramon chiqishini, intervyu, suhbat, reportaj, sharh shaklida ko'ramiz, u mavzu dramaturgiya qonunlariga javob beradimi-yo'qmi o'ylamaymiz. Muallif bilan ishlash, rejissorning jurnalist va boshlovchilar bilan ishlab, mavzuni takomiliga yetkazish eng asosiy pallalardan hisoblanadi. Har bir efirga chiqish fikrlar to'qnashuviga, bahslar, qarama-qarshiliklar asosiga qurilsa, zerikarli bo'lmaydi, tomoshaviyligi oshadi. Har bir efirga chiqish kompozitsion tuzilishga ega bo'lib, ibtidosi, tadrijiy

rivoji intihosi – yechimi bo‘lsagina ko‘rimli bo‘ladi. Televizion rejissor yakka chiquvchilar bilan ishlaganda ham, ko‘pchilik bilan ishlaganda ham inson qiyofasining xarakterli ifodasini topa bilishi, tasviriy ta’sirchanlik yo‘llarini dramaturgiya qonunlari asosida izlashi kerak. Teatr va kino dramaturgiyasiga nisbatan televizion dramaturgiya o‘ziga xos xususiyatlariga ega ekanligini biz unutmasligimiz lozim. Teleekran boshqa san’at turlariga nisbatan tomoshabinga sirdoshligini, kichik ekran san’ati rentgenday insonni ichki dunyosini ochib berishini, har qanday yolg‘on televizorda fosh bo‘lib qolishini – ekran tilsimi dramaturgiya asoslari mana shunda ekanligini rejissor hamisha esda tutmog‘i kerak. Agar mana shu holatlar rejissorning qaydnomasi ssenariyda muhrlanmas ekan, o‘ylangan reja aks etmas ekan, ko‘rsatuv televizion asarga aylanmaydi. g‘oya, reja, mavzu, fikriy tortishuv, maqsad, niyat shu asnodda ko‘rsatuvni mag‘zi nimadan iboratligini televizion rejissor aniq bilishi lozim. Informatsion axborot publitsistikasida ham, tahliliy publitsistikada ham, badiiy publitsistikada ham rejissor uning aniq yo‘nalishlarini ajratib olishi, ocherk, portret, esse, felyeton, pamflet chizgilarni farqlay olishi, reportaj, suhbat, itervyu, sharh va tahlillarni aniq nishonga urishi televizion rejissorining asosiy vazifalariga kiradi. Telerejissor bu ko‘rsatuvlarni qaysi tomoshabinlar auditoriyasiga yo‘naltirayapti, ta’sir doirasi qanday, aksadosi bormi, ko‘rsatuvning shakllantirishga, umri boqiyiligiga tomoshabin muloqati e’tibori yetarlimi, mana shularni ijtimoiy tadqiqot qilishi – ijodiy guruhning mas’uliyatiga kiradi.

«O‘zbekiston» kanalining publitsistik ko‘rsatuvlarida ranglar va nur bilan ishlash, chiroq uning ifodali usullarini topish imkoniyatlarini yaratish kerak. Hozirgi elektron texnologiyaning, ayniqsa, kompyuter texnikasining cheksiz

imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish maqsadga muvofiqdir. Rejissorning texnika effektlaridan o'rinsiz, bemaqsad ishlatganligi tufayli, ko'pincha, kadr ta'sirchanligi yo'qolayapti, turli libos, turli holat, turli joylarda tasvirga tushirilgan klip roliklarda payvand qilinib sayqal berilishiga qaramay rejissor oldiga qo'ygan aniq maqsad ochilmayapti. Bu holatlarning asosiy yechimi maktabdir. Rejissorning poydevori mustahkam bo'lmas ekan u chuqur ilm pog'onalarini, ziyo zarchashmalarini, texnika sirlarini mukammal o'zlashtirmas ekan xom-xoltala ko'rsatuvlar ketaveradi. Avvalambor olloh bergan iqtidor, so'ng mehnat, mehnat, tinimsiz mehnatgina insonni komillikka yetkazadi, shaxs sifatida ochiladi. Texnik taraqqiyot ketidan quvib yetish o'zi bo'lmaydi. O'z ustida tinimsiz ishlash, bilim va amaliyotni kundalik hayotni bosh mezoni qilish sifatga e'tibor berish har bir yosh televizion rejissorning asosiy burchi bo'lishi lozim. Hozirgi publitsistik ko'rsatuvlar rejissurasida asosiy muammolar, ularning yechim kalitlari mana shunda.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Publitsistik ko'rsatuvlar televizion ko'rsatuvlarning necha foizini tashkil etadi?
2. Rejissor mahoratining asosiy omili nimada?
3. Televideniye rejissurasida ijtimoiy-siyosiy-publitsistik ko'rsatuvlarni tayyorlashda yutuq va kamchiliklari nimada?
4. Televizion tasvir ishi nimalardan iborat?

TELESERIALLAR VA ULARNING REJISSURASI

Televideniye paydo bo'lishi bilan san'at olamida yangi janr – televizion dramaturgiya paydo bo'ldi. Umuman, dramaturgiyaga yangiliklar kirib keldi. Teatrning bir necha seriyalik spektaklini, seriallarini bilmaymiz. Ko'p bo'lsa, ikki kun qo'yiladi. Masalan, ikki qismli spektakl, ba'zida 3 qismli spektakllar ishlangan. Tomoshabinlar ikki yoki uch kun spektaklga kelishgan. Ma'lum bir darajada teatr spektakli 2–3 seriyadan oshmagan. Masalan, kinolarni olsak, ular ham ikki qismdan iborat bo'lgan. Ko'p seriyalli kinolar daslab Yaponiya, Hindisonda olingan.

Ko'p seriyali Meksika, Argentina, Braziliya, umuman, Janubiy Amerikaning seriallari («Sovun ko'pigi» deyishadi) ni maza qilib tomosha qilamiz. Masalan, «Santa Barbara», «Izaura», «Oddiy Mariya», «Gvadalupe», «Oshin», «Mahobxorat», «Qish ertagi», «Saroy javohiri» kabi televizion seriallarning ajoyib namunalari paydo bo'ldi. Har bir mamlakat o'z tarixi, o'tmishi, urf-odatlarini haqida serial yaratmoqda. Ko'p qismii televizion asar yaratish, har kech tomoshabinni zangori ekranga muhrlab qo'yishi odat tusiga kirdi. Ko'p mamlakatlar bunga katta ahamiyat bermoqda. Aslini olganda, serial yaratish xalqimizda qadimdan boshlangan. «Ming bir kecha», «Go'ro'g'li», «Alpomish» dosonlari, «Nasriddin afandi sarguzashtlari» kabi asarlar ham serial, faqat bular adabiyot, xalq og'zaki ijodining ajoyib seriallari hisoblanadi. Teatr va kino san'ati televideniye bilan hamkorlikda o'zbek xalqining necha yillik orzu-armonlarini ro'yobga chiqardi. O'zimizning milliy seriallar oynayi jahonda namoyish etila boshlandi. Bu seriallardan aksariyat tomoshabin ma'naviy oziqa olmoqda,

hayoti, turmush tarzida xulosa chiqarmoqda. Mavzu qanchalik ko‘p bo‘lsa, mazmunga boy, inson dilidagi gaplarni ayta olsa, o‘sha filmni butun oila miriqib tomosha qiladi.

1995-yillarda televideniyeqa yozuvchi Ahmad A‘zam bosh muharrir lavozimiga tayinlanadi. U teledramaturg va rejissorlarni to‘plab, «Biz nega o‘zbek seriallarini yarata olmaymiz, o‘zbek dramaturgiyasida nega serial asar yo‘q» degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Kinodramaturg Rixsivoy Muhammadjonov, rejissorlar Meli Mahkamov, Mahkam Mahametov, Mashrab Boboyev, Haybat Aliev va Sharof Boshbekovlar bilan ochiq muloqot olib boradi. Shunda o‘zbek serialini yaratish xususida daslabki rejalar tuzildi. O‘zbekiston televideniyesida yaratiladigan seriallarni Braziliya, Meksika seriallari kabi maishiy mavzular, oilaning ichki kechinmalari, shahvoniy holatlar aks etgan g‘arb davlatlari seriallariga o‘xshash emas, balki sharqona, milliy, o‘zbekona qilib olishga kelishildi. O‘zbek seriali 7 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan tomoshabinlarga mo‘ljallangan, dramaturgiya qonunlariga xos bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston televideniyesida birinchi marta suratga olingan «Ko‘ngil ko‘chalari» serialida bir o‘zbek oilasi misol qilib olingan, voqealar o‘zbek oilasining turmush tarzi, keksalarning hayoti, mahallada yuz berayotgan voqealar, oilaning buzilishi, farzand tarbiyasi va hayotdagi turli muammoli vaziyatlarni tomoshabin hukmiga liavola qilinishi maqsad qilib olindi.

«Ko‘ngil ko‘chalari»... Haqiqatdan ham, inson zotining ko‘ngli keng bo‘ladi. Har xil ko‘chaga kirishni xohlaydi. Insonning kirmagan ko‘chasi yo‘q, adashadi, qoqiladi, har xil so‘qmoqlardan yuradi. Inson hayoti har xil kechinmalardan iborat. Mana shu kechinmalami bir oilaning taqdiriga bog‘lab Mashrab Boboyev «Ko‘ngil ko‘chalari» serialini tayyorladi.

Bu serial ijodkorlari fidoyilik bilan ish boshlashdi. Serialga umuman ekranda ko‘rinmagan aktyorlar kerak, degan fikrga kelinib, hali elga tanilmagan, sahnada ko‘p ko‘rinmagan san’atkorlar taklif qilindi. Televideniye san’ati yangi qiyofa, yangi ijrochilarni yaxshi ko‘radi. Tomoshabinga tanilmagan aktyorlar ma’qul tushadi. Aks holda u san’atkor, tomoshabinning «Yana o‘sha o‘ynabdi» degan so‘zlarini eshitib, el nazaridan qolishi hech gap emas.

Serial ijodkorlari daslab asar nima bilan boshlanishi, oqibati nima bilan tugashini bilmas edilar. Asarda bir oilada bir nechta farzand, sho‘ro davrida katta lavozimda ishlagan kommunistning qismati, uning hayotda yo‘l qo‘ygan xatolari, xotin ustiga yana xotin olishi kabi qator voqealar aks ettiriladi. O‘zi Bekobodda rahbarlik lavozimida ishlab xotini, bola-chaqasi Toshkentda qolgan holda ba’zi bir sabablarga ko‘ra boshqa bir ayolga uylanadi, qiz ko‘radi, bu qiz oqibatda voyaga yetib, otaning katta lavozimda ishlaydigan o‘g‘li bilan tanishib qoladi, taqdir taqozosi tufayli munosabatlar chuqurlashadi. Ular aka-singil ekanligini bilmaydi. Chunki ota birinchi oilasiga bu sirni oshkor qilmagan. Musulmonchilikda aslida uzoq muddat safarda bo‘lgan kishi bo‘lsa, kimnidir nikohiga olishi, undan farzand ko‘rishi, keyinchalik ular bilan bordikeldi qilishi mumkin. Aka bilan singil o‘rtasidagi munosabat sho‘ro davrida bo‘lib o‘tgan son-sanoqsiz hikoyalardan biridir. Shahvoniy munosabat esa aqlga sig‘maydigan holatdir. «Ko‘ngil ko‘chalari» dagi mavzuning teranligi, kutilmagan munosabatlar, gunohi azimning oqibatlari nimalarga olib kelishi mumkinligi, bir oilaning boshiga tushgan kulfatlar tomoshabinni qiziqtirib qo‘ydi. Bir egri qadam tufayli, xiyonat tufayli xonadon a‘zolari hayotning katta sinovlaridan o‘tadi. Ulardan omad yuz o‘giradi: biri esdan og‘adi, biri vazifasidan

bo'shatiladi, biri qamaladi. Xullas, barchasi tegishli jazosini oladi. Qahramonlar butun film davomida o'z-o'zini jazolaydi, vijdon azobida qoladi. Bu teleserialda voqealar nihoyasiga yetmagan bo'lsa-da, asar qahramonlari Al-Buxoriy maqbarasini ziyorat qilib, qilgan gunohlarini yuvish iltijosi bilan, iymonga, e'tiqodga sadoqat bilan film yakun topadi.

«Ko'ngil ko'chalari» teleseriali 51-qismda to'xtab qoldi. U yana bir necha fasl davom etib, keyin yakun topishi kerak edi. Shunday bo'lsa ham ikkinchi fasl tavba-tazarru bilan tugadi. Televizion dramaturgiyani milliy qilib olishga bizda ham katta imkon bor ekanligiga ishonch hosil qildik. Aslida serialni ovozlashtirish, pardoz-andoz qilish, qisqartirish kerak edi, ammo ijodkorlar bunga ulgurishmadi. Haqiqiy naturada ketgan serial efirga yetkazib berildi xolos.

Bu asar Mashrab Boboyevning dramaturg sifatida o'zbekona, milliy hayotimizga oid voqealarni, muammolarni ko'tarib chiqishi uning dramaturgiya sohasida qilgan katta jasoratidir.

Dramaturg Sharof Boshbekov «Charxpalak» videofilmida boshqa mavzuga qo'l urdi. U lo'li qiz hayotini, uning hayot charxpalagi atrofidagi qismatini yoritdi. Kinorejissor Y.Roziqov «Domla» serialini oxiriga yetkazmadi.

Tomoshabinlar kutayotgan asarlar ko'p. Alloma, yozuvchilarimiz, adiblarimiz yozib qoldirgan asarlar televizor ekranida ko'rilsa, kinolar sifatida chiqsa, bu nur usiga a'lo nur bo'ladi. Maktab o'qituvchilari ham, yosh tomoshabinlar ham mana shunday adabiyotlardan bahramand bo'lishlari kerak. Romanchiligimizning butun dunyo tan olgan ajoyib namunalari «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» kabi asarlar zangori ekranda serial sifatida o'z ifodasini lopishi kerak. Yangi avlodlar bu asarlar bilan qayta tanishishlari

lozim. Mashhur rejissor Yo'ldosh A'zamov yaratgan filmlar butun bir asarni boricha qamrab ololmagan, asarning ba'zi joylarinigina olgan xolos. U paytlarda, hatto ikki qismli kino olishga ham ruxsat berilmagan. «O'tkan kunlar»dagi voqelik bir qismga sig'mas edi. Shuning uchun ko'p voqealar aks ettirilmagan. Rejissor M. Mahammetov, adib Xayriddin Sultonovga «Mehrobdan chayon» asarini televizion serial qilish niyati borligini bildiradi. Ular birgalikda Abdulla Qodiriyning o'g'li Ma'sud akaning oldiga borishadi. Tez fursatda asarning 15 qismiga ssenariy yoziladi. Lekin XIX asr ikkinchi yarmidagi Qo'qon xonligi muhitini o'rganish, tarixiy haqiqatga yaqinlashish murakkab kechdi. Bosh rollarni ijro etuvchilarni tanlash qiyin bo'ldi. Qahramonlarni Farg'ona universiteti, Qo'qondagi kollejlari, San'at insitutidan qidirildi. 20–30 ta aktyor ko'rikdan o'tkazilib, oxiri tasvirda ifoda etilgan qahramonlar tanlandi. Ijodkorlar bir narsani oliy maqsad qilib qo'ydilar, ya'ni rejissor Yo'ldosh A'zamov kinoda yoritilgan xonlik saroyidagi chirkin muhitni, nafs bandalarini, milliy muhabbat iztiroblarini bezab, bo'yamay boricha ko'rsatishga, yozuvchining bironta so'zini chetda qoldirmaslikka harakat qildilar. Asar nima uchun «Mehrobdan chayon» deb ataladi? Qodiriyning mohirligi, adabiyotimizning ajoyib namoyandasi ekanligi mana shu asarda bilinadi. Dardini, aytolmagan gaplarini, shu kitoblarga singdirgan. Mehrob, bilamizki, bu – sajdagoh. Masjid mehrobiga hamisha sajda qilinadi. Nima uchun shu mehrobga sajda qilamiz, chunki mehrob toza, pokiza, halol joy. Mehrobdagi chayon kim bo'ldi? Qodiriyning kitobning so'zboshisida «Men aytgan va aytolmagan gaplarimni o'quvchim uqib olar» degan yaxshi gaplari bor. Mehrobdagi chayon kimligini har kim o'zicha idrok qiladi.

A. Qodiriy asarda faqat Anvar bilan Ra'no muhabbatinigina emas, balki moziyning iflos tomonlarini ham aks ettiradi. Asarni tasvirga olish jarayonida qiziq bir holatga duch keldik. Taqdir taqozosi bilan rejissor Melis Abzalovning «O'tkan kunlar» romani asosida ikki qismli badiiy filmi hamda «Mehrobdan chayon» televizion seriali bir vaqtning o'zida suratga olina boshlandi. Ikki ijodiy guruh Xudoyorxon saroyida ish boshladi. A. Qodiriy qahramonlari – o'z davrining saroy a'yonlari-yu, qozikalon, mirzalari o'sha davr liboslari, urf-odatlari bilan saroy kezdilar. Bizlarga Qodiriy bobomiz ruhi madad bergandek bo'ldi. Qayerda, qachon, qaysi kuni biz tasvirga tushirmaylik romanda, yozilgan holatlar, tabiat mo'jizalari ro'y berib turdi. Qo'qon izg'irin shamollarida kech kuzda daraxt barglarining uchishlari-yu, xazonrezgi holatlari, kimsasiz xonadonda Anvar bilan Ra'noning xayrlashuv oqshomida eshiklarning shamolda taraqa-turug'i, «Mo'yi-muborak»da Qo'qonni tark etishdagi oydin kecha, hamma-hammasi ssenariyga mos keldi. Anvar bilan Ra'noning yarim kechada gulzordagi pinhona uchrashuviga biz butun Qo'qonni aylanib joy topolmadik. Rassom Saidakmal Rasulov bilan Toshkentga kelib, aynan Qodiriy xonadonining hovlisidan romandagi tasvirni topdik. Bu bizga katta omad edi. Xullas, hamma joyda Qodiriy ruhi biz bilan kezib yurdi. Eng hayratlanarlisi shuki, biz filmni yakunlab efirga uzatganda 15-qism birinchi fevraldan boshlab 15-fevral kuni nihoyasiga yetdi, vaholanki, Qodiriy bobomiz ham romanning so'nggi nuqtasini 1928-yili 15-fevral kuni qo'ygan ekanlar. Bu taqdir ajoyibotlari edi. Bu bizning ilk tajribamiz, ilk urinishimiz edi. Albatta, filmda juz'iy kamchiliklar ham bor, nihoyasiga yetmagan, cho'zilgan sahnalar ham mavjud. Lekin butun ijodiy guruh yozuvchi so'zlarini buzmasdan, aslidagidek talqin qilishga harakat qildi,

15 kecha teletomoshabinga adib durdonasini yetkazishga intildi. Navbatda mana shu buyuk yozuvchimizning «O‘tkan kunlar» asari turibdi. O‘sha davrni, zamon ruhini, kayfiyatini, liboslarini chuqur biladiganlarning ko‘pchiligi o‘tib ketayapti. Asarning televizion talqinini yaratish, yosh avlodga qoldirish kerak.

So‘nggi yillarda «O‘zbektelefilm» studiyasida milliy seriallarga katta e‘tibor berilayapti. Bu jabhada rejissorlardan «Lafz», «Iymon» seriallarini tayyorlagan rejissor Bahodir Ahmedov, «Charxpalak», «Qaytar dunyo» seriallarini tayyorlagan Shavkat Junaydullyev, «Gulxan atrofida», «Tutash taqdir» seriallari rejissori Zamira Begimqulovanning qilayotgan ishlari tahsinga loyiq.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Televizion dramaturgiya deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbekiston televideniyesida ilk marotaba suratga olingan teleserial haqida gapirib bering.
3. Televizion seriallarni suratga olishda nimalarga ko‘proq ahamiyat berish kerak?

REJISSORNING BADIY ASAR USTIDA ISHLASH JARAYONI

Buyuk yozuvchilar buyuk rejissor bo‘ladi, deyishadi ustozlar. Darhaqiqat, Shekspir ham, Balzak ham, Lev Tolstoy ham, Abdulla Qodiriy ham buyuk rejissorlardir. Ularning har bir satri, har bir sahnasi, so‘zi zamirida yotgan fikrlar rejissor uchun katta bir ma’naviy oziqa, sahnalashtirishning ulkan imkoniyatlarini yaratib beradi, tasavvuringizda, ko‘z oldingizda

o‘z-o‘zidan voqealar tizmasi jonlanib namoyon bo‘laveradi. Siz uni muallif uslubini, oldiga qo‘ygan maqsad, niyatlarini buzmaganda holda ro‘yobga chiqarsangiz bas, shuning o‘zi yetadi. To‘g‘ri, rejissor ijodkor shaxs sifatida o‘zining «men»i, muallifga munosabati, davrga hamohangligi, avval ochilmagan qirralarni asardan topishi, yangi yondashuvni zamondoshga izhor qilishi, uni larzaga keltirishi lozim. Ammo, ko‘pincha, rejissorlar o‘zini namoyon qilib, «men»i bo‘rtib, muallifning fikri-zikri ikkinchi darajali bo‘lib qolayotgan hollari uchrab turibdi. Men mumtoz asarlarga har gal yangicha ifoda topib yangi talqinda tomoshabinga havola etilgan spektakllarni ko‘rib, hayratga tushganman. «Revizor», «Hamlet», «Otello», «Qutlug‘ qon», «Kelinlar qo‘zg‘oloni», «Qiyomat qarzi» shular jumlasidandir. Asarlarni sahnalashtirishda rejissor yozuvchining biron so‘zini o‘zgartirmay yangi qatlam fikrlarni topa bilgan. Talqinda gap ko‘p. Rejissor bir asarni har asnodan ko‘rish, o‘ziga kerakli durni topib olishi mumkin. Ikkinchi jahon urushida Aleksandr Korneychukning «Front» asari sahnalashtirilgan. Asar qahramonlari, sobiq sovet zobitlari va askarlari nemisga qarshi kurashadi. «Sovet»da qo‘yilgan bu asar vatanparvarlik ruhida tayyorlanib dushmanga nafrat uyg‘otgan. Aynan shu asarni Germaniyada sahnalashtirilib bironta so‘zini o‘zgartirmasdan ko‘rsatishgan. Natijada nemis zobitlari aqlli, idrokli, sovet zobitlari ahmoq, laqma sifatida namoyish qilingan. Farq uslubda, ijro ohangida, talqinda. Demak, asarning qo‘yilishida gap ko‘p ekan. Rejissor qanday qo‘ysa, tomoshabinga qanday havola qilsa, shunday taassurot qolar ekan. Dramaturg yozadi, muallif ham o‘zi. Lekin sahnalashtirilgan asar – spektakl muallifi rejissordir. Qog‘ozdagi muallif dardi bilan sahnada jonlangan rejissor

dardi hamohang bo‘lib, uyg‘unlashib ketsa, maslak bir joydan chiqsa, asar muvaffaqiyati, uzoq umr ko‘rishi shundan bo‘ladi.

Pyesa birlamchi, spektakl ikkilamchi hisoblanadi. Atayin sahnaga moslab yozilgan asarlar bor: drama, komediya, tragediya, opera, operetta, musiqali drama va hokazolar. Sahnaga moslashtirilgan (adaptatsiya) asarlar ham bor: roman, qissa, novella insseniroykaları.

Badiiy asar ustida ishlaganda rejissor birinchi holatda asar mavzusi, g‘oyasi, shu kun uchun dolzarbliligi ustida bosh qotirishi, tomoshabinga qanday ma’naviy oziqa berishi haqida o‘ylashi kerak.

Biz bilamiz, barcha badiiy asar – to‘qima, yozuvchi, dramaturg xayolotida o‘ylab topilgan hayotiy lavhalar. Bu badiiy to‘qimalar rostga aylanishi kerak. Bu o‘z yo‘lida muallif mahoratiga bog‘liq. Muallif goh tarixiy, goh ijtimoiy, goh maishiy mavzuga murojaat qilgan ekan, insoniy muammolarni rost, ishonarli qilib dramaturgiya qonunlariga moslab yozmog‘i kerak.

Buyuk shoir A.S. Pushkin «to‘qimalarimdan o‘z aksimga chulg‘anaman», – deb yozadi. To‘qimaning rostligi shoirni larzaga soladi. Yozuvchi shu bugungi muammolar yechimini boshqa davrlardan qidiradi, murojaat qiladi. Shekspir Angliyada sodir bo‘layotgan qusurlarga javobni boshqa asrdan, o‘tgan zamonlardan topadi. Abdulla Qodiriy ham shunday mavzuni o‘tgan zamonlardan boshlaydi. Badiiy to‘qima yozuvchi iqtidoriga, xayolot dunyosiga bog‘liq. Bu san‘atga xos bo‘lgan xususiyatdir.

Umuminsoniy abadiy mavzular, muammolar bor: muhabbat, nafrat, o‘lim, hasad, rashk kabilar hech qachon o‘lmaydi. Insoniy hislatlar, ezgulik va yovuzlik, itoat va takabburlik,

mehr va shafqatsizlik, donolik va nodonlik, saxiylik va xasislik, insonning barcha his-tuygʻulari asarlarda oʻz ifodasini topsin. Oʻtkinchi, kundalik mavzular bor: ular sharoitdan, vaziyatdan kelib chiqib yozilgan tezpishar asarlar. Bular tez eskiradi va nazardan tushib qoladi.

Yaqin oʻtmishda yozilgan va oʻsha davrni ulugʻlagan koʻpgina sahna asarlari hozir keraksiz boʻlib qoldi. Rejissor asar tanlar ekan, mana shu narsalarga eʼtibor berishi kerak. Bundan tashqari har bir yozuvchining oʻziga xos xususiyatlari, yozish uslublari mavjud. Masalan, Oybekni Abdulla Qahhordan, Abdulla Qodiriyni Togʻay Muroddan tili, uslubi, tasvir ifodalari, qiyofalari bilan bemalol ajrim qilish mumkin. Rejissor yozuvchining nimaga qodir ekanligini, oʻziga xosligi nimadaligini, qaysi jihatlari bilan ajralib turishini aniqlab olish lozim. Demak, yozuvchi – dramaturg qahramonlar nimani gapirayotganini yozadi, rejissor qanday gapirayotganini ochib beradi. Baʼzan dramaturg rejissorga yordam boʻlsin uchun voqea sodir boʻlayotgan joylarni ipidan ignasigacha luqmalarda (replika) tafsilotini beradi. Baʼzan yozuvchi rejissorning oʻziga talqinni havola qiladi. Muallif ruhiyatini, unga yashiringan muddaoni rejissor ilgʻashi, topishi kerak boʻladi. A.P. Chexov, M. Gorkiy oʻz pyesalarini komediya deb yozadi. Aslida uning zamirida dramatik holatlar, fojialar yotgan boʻladi. Rejissor muallif ijodini, dunyoqarashini, uning kayfiyatini, uslubiyatini chuqur oʻrgangan, asarni sahnalashtirgunga qadar oʻziga xoslik tomonlarini yaqqol anglagan boʻladi. Baʼzan bitta mavzuni bir necha muallif oʻz ijodida qalamga oladi. Masalan, «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Sabbaʼi sayyor», «Saddi Iskandariy» va hokazolar. Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy

nega bu mavzularga qo‘l urgan? Yondashuvlardagi tafovut nimada? Boshqa manbalardagi farq va oxir-oqibat rejissor bu asarni sahnalashtirishdan maqsad shaxs sifatida nima demoqchi, qanday yangi gap aytmoqchi, mana shu holatlar rejada o‘z ifodasini topsin. Pyesa adabiy mahsul, uni o‘qish mumkin. Rejissor unga hayot bag‘ishlaydi, murakkab ijodiy jarayonni boshdan kechiradi. Sahnada san’at mahsulini, tomoshabinga mo‘ljallangan jonli mahsulni ro‘yobga chiqaradi. Bu mahsul – spektakl tomoshabin vijdonini g‘ulg‘ulaga solsin, qalbini junbushga keltirsin.

Shu o‘rinda adabiy mahsulning sifati, ko‘targan yuki, beradigan ma’naviy oziqasi haqida rejissor munosabatini o‘ylab ko‘raylik. So‘nggi vaqtlarda sahnani, kinoekranni, televizion efini o‘ta jo‘n, sayoz, bir ko‘rimli «asar»lar to‘ldirib ketdi. Teatrqa, kinoga kirgan, televizorni tomosha qilgan tomoshabinning hafsalasi pir bo‘layapti. Bu nima? Haqiqiy san’atga bo‘lgan talabning susayishimi? Tomoshabin didi o‘tmaslashganimi? Yuksak san’at namunalari qayerda qoldi? Bir domlam «saryog‘ turgan joyda margarinni yeb nima qilamiz», degan edi. Yuksak adabiy asarlar, haqiqiy ijod namunalari turgan joyda biz o‘rtamiyona, tomoshabinga hech narsa bermaydigan «asar»larni sahnalashtirib, ekranlashtirib, efiga uzatib nima qilamiz? Meningcha, haqiqiy rejissor badiiy asar tanlashda, uning ustida ishlashda mana shunga e’tibor berishi kerak. Agar san’atning burchi yuksak saviyali barkamol insonni tarbiyalash bo‘lsa, rejissor kelgusi avlod oldida, uning dunyoqarashi, saviyasi oldida o‘ta mas’ul ekanligini hech qachon unutmasligi kerak.

Rejissor qanday ishlasa, tomoshabinda shunday taassurot qoladi. Qog‘ozdagi muallif dardi bilan sahnada jonlangan

rejissor dardi hamohang bo‘lib, uyg‘unlashib ketsa, asar muvaffaqiyati, uzoq umr ko‘rishi shundan bo‘ladi.

Rejissorning badiiy asar ustida ishlash mundarijasi:

1. Sahnalashtirish rejasi nima?
2. Asarni rejissorcha o‘qishni qanday tushunish kerak?
3. Asar g‘oyasi va mavzusini aniqlash.
4. Konflikt to‘qnashuv nima?
5. Asarda qatnashuvchilarning xarakterlarini qanday aniqlash kerak?
6. Asarda dolzarblik, tipiklik xususiyatlari nimada?
7. Asardagi voqealarni qanday nomlash kerak?
8. Asar kompozitsiyasi.
9. Asar tili qanday?
10. Tarixiy shart-sharoitlarni o‘rganish nima?
11. Ilmiy, adabiy, publitsistik va ikonografik materiallarni qanday o‘rganish kerak?
12. Matn va zamir (tekst va podtekst) nima?
13. Muallif matni ustida ishlash.
14. Stol atrofida ishlash nima?
15. Qisqartirish qanday kechadi?
16. Rejissorning ko‘rsatish va tushuntirish uslublari.
17. Ixota nima?
18. Rassom bilan ishlash.
19. Libos va pardoz.
20. Asarda musiqaning o‘rni va roli.
21. Nur ustida ishlash.
22. Montirovka nima? (asbob-uskuna va jihozlarni joylashtirish)
23. Shovqin-suronning o‘rni va roli.
24. Mizonsahna nima?

25. Asarda sur'at nima?
26. Ommaviy sahnalarning ustida qanday ishlash kerak?
27. Dastlabki umumiy mashq (progon).
28. Asosiy mashqlar (general repetitsiya).
29. Asarni topshirish.
30. Premyera.
31. Spektaklni saqlash nima?

REJISSORLIK SENARIYSI

Rejissor adabiy ssenariyni o'rganib, tahlil etib bo'lgach, rassom va operatorni ham tanishib chiqish uchun taklif etadi. Keyin bu uch ijodkor ssenariy haqidagi o'z fikr-mulohazalari bilan bir necha bor o'rtoqlashadilar. Uni ishlab chiqarishga shundayligicha qabul qilish yoki oldin tuzatishlar kiritish haqida maslahatlashib oladilar. Ssenariy rejissor fikricha-uzil-kesil tayyor bo'lgach ishning navbatdagi bosqichi boshlanadi. Rejissor, rejissorlik ssenariysini ijod qilish pallasiga kirishadi. Uni yaratish davomida postanovkachi-rejissorning kinematografik tafakkuri, tovush va tomoshaviy obrazlar shaklida fikrlay olish qobiliyati namoyon bo'ladi. Adabiy ssenariy ustida ishlay boshlagandayoq rejissor butun voqealarni, obrazlarni hayolan «ko'rib borishi» kerak.

Rejissorlik ssenariysi – bu qog'ozdagi filmidir. Unda syujet, obrazlar rivoji batafsil «ko'rsatilgan», bo'lajak filmdagi insonlarni o'rab turgan tabiat va atrof muhit «tiklangan», musiqa, shovqin, ko'rsatilgan bo'ladi. Rejissorlik ssenariysida har bir kadrda molik sahnalar, epizodlar metraji, rakurslari, planlari albatta ko'rsatiladi. Rejissorlik ssenariysida filmning adabiy asosi kinematografik ifoda vositalari asosida qayta tuzib chiqiladi. Bu narsa asar mohiyatini suratga olish guruhi

o‘qishi (uqishi)ni yengillashtiradi, ishlarini osonlashtiradi. Shu o‘rinda yana ta’kidlamoq kerakki, suratga olish jarayonida ssenariyning ba’zi joylariga o‘zgartirish, xatto turli sabablarga ko‘ra, jiddiy o‘zgarishlar kiritilishi mumkin.

Rejissorlik ssenariysida filmda ishtirok etuvchi bosh va ikkinchi plandagi qahramonlarning hammasi aniq ko‘rsatiladi. Rejissor rassom bilan birgalikda suratga olish obyektlarini belgilaydi va ularni batafsil rejalashtiradi. «Olima, murabbiy, ustoz» nomli portret janrida olingan filmning adabiy va rejissorlik ssenariysi misolida ko‘rib chiqamiz.

«Olima, murabbiy, ustoz»

Institut hovlisida talabalar suhbatlashib turishibdi, qo‘ng‘iroq chalinadi.

Kimdir shoshilganicha dars o‘tish uchun yorug‘ karidordan ketayapti.

Auditoriya eshigi ochilib, bir ayol kirib keladi, talabalar o‘rinlaridan turadilar.

Domla – Sarvinoz opa talabalarga o‘tirishga ruhsat beradi. Dars jarayoni (kadrlar almashib turadi).

Domla ma’ruzalarini o‘qib bo‘lganlaridan so‘ng, institut hududidan chiqib, mashina to‘xtatadi.

Mashinaga o‘tirganidan so‘ng, hamma charchoqlarini unutib, tabiat manzaralarini tomosha qilib ketadi.

Manziliga yetib kelganidan so‘ng, mashinadan tushib, yengil nafas oladi va yana tez-tez shijoatli qadamlar bilan ishxonaga kirib ketadi.

U yerda ham ildamlilik bilan ishlarini bajaradi... va ish stollari yonida o‘tirgan holda maqola yoza boshlaydi.

Rejissorlik ssenariysidan lavha

T/r	Suratga olish obyekti	Suratga olish uslubi, plan	Vaqt	Kadr mazmuni	Musiqa, shovqin	Qaydlar
1	Titrlar		15 sek.	Boshlovchi titrlar		
2	«Institut hovlisi» natira, kun	Umumiy	8 sek.	Talabalar institut hovlisida turishibdi, qo'ng'iroq chalinadi	Tabiiy shovqin	
3	«Zina» pavilon, kun	O'rta	4 sek.	Kimningdir oyoqlari ko'rinadi. Oyoqlar qayoqadir shoshayapti	Ritmik musiqa	
4	«Karidor» pavilon, kun	Umumiy	8 sek.	Keng karidor, ekranga orqa tomondan olingan kadrda bir ayol shoshib ketayapti	Ritmik musiqa	
5	«Eshik, auditoriya» pavilon, kun	O'rta	10 sek.	Bir ayol auditoriya eshigini ochib kiradi, talabalar o'rinlaridan turib kutib olishadi	Ritmik musiqa	
6	«Auditoriya» Pavilon, kun	O'rta	8 sek.	Domla Qodirova Sarvinoz opa qo'lidagi jurnallarni qo'yib, talabalarga o'tirishga ruxsat beradi. Talabalar o'tirishadi	Ritmik musiqa	
7	-#-#-#-	Har xil planlardagi holatlar	60 sek.	Dars jarayoni. Har xil vaziyatlardan olingan lavhalar	Ritmik musiqa	Yorug'lik uchun chiroqlar

Suratga olinadigan obyektlar

Natura	Vaqti	Pavilon	Vaqti	Titrlar	Vaqti
Institut hovlisi	14 sek.	Zina	4 sek.	Titrlar	30 sek.
Ko'cha	52 sek.	Koridor	8 sek.		
San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti hovlisi	12 sek.	Auditoriya.	1 minut, 24 sek.		
		Mashina kabinasi	8 sek.		
		San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti binosi	1 minut, 26 sek.		
Jami: 5 minut					

Voqyealar bo'lib o'tadigan obyektlar aniqlangandan so'ng rejissor adabiy ssenariy asosida kino tasviriy vositalarini, s'emka harakterini batafsil belgilab chiqadi. Shu ish rejissor ssenariysi deb ataladi.

Kadr – filmning bir bo'lagi. «Motor» komandasi berilgandan «Stop!» komandasi berilgungacha suratga olinadi. Kadrning uzunligi har xil bo'lib, ko'pincha uning mazmuni bilan bog'liqdir. Ba'zida mazmunan juda muhim kadrning uzunligi 200 metrni ham tashkil qilishi mumkin. Kadrning uzunligini va suratga olish uslubini yuqorida ko'rsatilgandek, rejissor belgilaydi. Rejissorlik ssenariysida rejissor zarur texnikani ham ko'rsatib o'tishi mumkin.

Rejissor kadrlarning metrajlarini ko'rsatib o'tishi juda muhim, chunki metrajlari aniq ko'rsatilgan kadrlarni uyg'un

birlashtirilishi oxir oqibat filmning tempo-ritmini ham belgilaydi.

Ssenariyning «Shovqin, musiqa» bo‘limida rejissor musiqaning qanday harakterdaligini yoki qaysi bir musiqaning aniq nomini ko‘rsatadi. Masalan, «Shopen valsini» deb yozib qo‘yish mumkin. Lekin bu kamdan-kam bo‘ladi.

Rejissorlik ssenariysi ustida ishlash film yaratilishida muhim o‘rin tutadi. Zero uning sifati, aniqligi, ravonligi uning syomkaning muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. Ssenariy bosqichi – adabiy va rejissorlik ssenariylari ustida ish olib boradigan muhim bosqichdir.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Rejissorlik ssenariysi nima?
2. Suratga olish obyektlari haqida gapirib bering.
3. «Qog‘ozdagi film» deganda nimani tushunasiz?
4. Suratga olish jarayonida rejissorlik ssenariysidan foydalanishning qanday afzalliklari mavjud?

Mavzu yuzasidan topshiriq:

Kichik hikoyaning adabiy ssenariysi asosida rejissorlik ssenariysini tuzib kelish.

TELEVISION KO‘RSATUV LOYIHALARIDAN LAVHALAR

«O‘zbekiston» telekanali «O‘zbekiston» teledasturini sun‘iy yulduz aloqa tizimi orqali tarqatish studiyasi tomonidan 2017-yilda efirga uzatilishi rejalashtirilayotgan ko‘rsatuv loyihasi;

ARALASH SHOU

Teleko‘rsatuv nomi: – ARALASH SHOU.

Teleko‘rsatuvning maqsadi: – Bu ko‘rsatuvni tayyorlash va efirga uzatish, bugungi yoshlar uchun muhim hisoblanadi. Yoshlarimizning vaqtini mazmunli o‘tkazish; ularni san‘atga, sportga bo‘lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish asosiy muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Dunyoda eng tez tanilishning asosiy yo‘li sport va san‘at deb bejizga aytilmagan; Respublikamiz bo‘ylab yosh iqtidorli, qolaversa, jamiki iqtidorli yoshlarimizni topib, ularning san‘atini iqtidorini televidenye orqali ommaga nomoyish etish hamda ularga ma‘naviy ko‘maklashish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonunni imzoladi. Bu qonun 15-sentabr kuni matbuotda e‘lon qilindi. Qonunga ko‘ra yoshlarga oid davlat siyosati deganda, davlat tomonidan amalga oshiriladigan va yoshlarning intellektuall ijodiy va boshqa salohiyatining rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilishi ko‘zda tutilgan. Undan tashqari, yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyillari tariqasida ochiqlik va shaffofliq yoshlarning mazkur siyosatni amalga oshirishdagi ishtiroki, yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish ma‘naviy, ma‘rifiy va madaniy qadriyatlar ustuvorligi, shuningdek, yoshlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik ko‘rsatib o‘tilgan.

Respublikamizdagi jamiki iqtidorlilar orasida turli tanlovlar o‘tkazish.

– Chekka qishloq va tumanlardagi Iqtidor egalarini o‘z iqtidorlarini nomoyish etishda va ularning ijodiy parvozigaga yordam berish.

Faqatgina san‘at va sport yo‘nalishi bilan chegaralanib qolmasdan, turli xil yo‘nalishlarda o‘z iqtidorlarini namoyish etishi mumkin. Irqidan, millatidan, yoshidan qat’iy nazar

barcha O‘zbekiston fuqorosi bu ko‘rsatuvda, zangori ekranda o‘z talantini namoyish etishi mumkin.

Teleko‘rsatuvning vazifalari: – Yoshlarning ijodiy ishlarini yanada takomillashtirishni jonlantirish.

Iqtidorli ijodkorlilarimizning iqtidorini ommaga nomoyish etish.

Yoshlar o‘rtasida ijodiy raqobatni shakllantirish.

Bu ko‘rsatuvni ommalashtirish va xalqqa havola etish.

Barcha iqtidorlilarning yuksak mahoratini yanada takomillashtirish ularning mahoratlarini ommaga havola etishda «Aralash» ko‘rsatuv orqali amaliy yordam berish.

Mazkur teleko‘rsatuv orqali jamiki iqtidorli sohib va sohibalarni yanada shakllantirish.

Teleko‘rsatuv ishtirokchilari: – Respublikamizning barcha viloyat va tumanlaridagi barcha yoshi, millati, irqidan qat’iy nazar, Uzbekiston Respublikasining fuqorolari ishtirok etib, o‘z iqtidorlarini nomoyish etishlari mumkin.

Teleko‘rsatuvni tayyorlash tartibi – Teleko‘rsatuv har haftada bir marta tayyorlanadi. Efirga haftada 2 marta uzatiladi, 1 marta original 1 marta takroriy teleko‘rsatuvda barcha iqtidorlilar ishtirok etishi munosabati bilan davomiy va doimiy hisoblanadi. Telekursatuv 4 bosqichda tayyorlanadi. Har bir ishtirokchi balli tizimda baholanadi, har bir ishtirokchi o‘z iqtidori bilan 40 ballgacha 4 ta hay’at a’zolari tomonidan maksimal 10 balldan baholanadi va faqat 40 balldan ortiq ball to‘plagan ishtirokchilar keyingi bosqichda ishtirok etadi. Har bir bosqichda har bir ishtirokchi o‘z yulduzlik unvoniga ega bo‘ladi.

1. Oddiy yulduz.
2. Brilyant yulduz.

3. Oltin Brilyant yulduz.

4. Aralash Shou toji Mutlaq Olmos yulduz.

1-bosqich. Uz iqtidorlari va mahoratini namoyish etish orqali 40 ball to‘plash va oddiy yulduzlik unvonini qo‘lga kiritish.

2-bosqich. Mahorati bo‘yicha qiziqarli savollarga qiziqarli javob berish va yana 40 ballni qo‘lga kiritib saralash bosqichidan o‘tish va brilyant yulduz unvonini qo‘lga kiritish.

3-bosqich. Bu bosqichda har bir soha bo‘yicha Yulduz unvonini qo‘lga kiritishadi shu unvon iqtidorlilar orasidan kuchlilari saralanadi oltin brilyant olganlarga 4 bosqich mutlaq yulduzlik uchun harakat qilishadi.

4-bosqich. Oxirgisi bo‘lib mutlaq Olmos yulduz toji uchun hamma o‘z mahorat va iqtidori bilan harakat qilishadi va hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi G‘oliblar tojni qo‘lga kiritadilar.

Bu tok shouning asosiy dekarativi bezaklari – Studiya chiroyli bezatilgan har xil chiroqlar yordamida xuddi konsert zalidek yoritiladi.

Tok-shouni tayyorlashda

Hamkor tashkilotlar...

Homiy tashkilot...

G‘oya muallifi: Raxmatilla Sultonov, Muhiddin Eshmirzaev

«BILISHNI ISTAYMAN!!!» KUNGILOCHAR KO'RSATUVINING KONSEPSIYASI

Ko'rsatuvning texnik xarakteristikasi

Yo'nalish: Ko'ngilochar.

Xronometraj: 30 daqiqa.

Efira uzatilish tartibi:

Original – 1 oyda uch marta.

Takror – 1 oyda uch marta.

Jami – 1 oyda ta efir.

Maqsad:

O'zbekistonda bugungi kunda turli yo'nalishlar bo'yicha ko'plab kompaniyalar o'z faoliyatini olib bormoqda: aholiga xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq yo'nalishi, ishlab chiqarish va hokazo. Ko'rsatuvimiz orqali shu kompaniyalarning faoliyati haqida ko'ngilochar dastur shaklida ommaga ma'lumotlarni taqdim etish va teletomoshabinda yangicha televizion yondashish orqali zamonaviy qarashni shakllantirish.

Ijodiy jamoa:

Boshlovchi – 1

Muharrir – 1

Rejissor – 1

Teleoperator – 3

Montaj mutahassisi – 1

Grim ustasi – 1

Kerakli uskunalar:

Kamera – 3

Mikrofon – 2

Mikrofon (petlichka) – 2

Montaj apparati – 1

1 ta ko‘rsatuvni tayyorlash jarayonida uskunalarni ishlatish uchun kerak bo‘ladigan vaqt (haftasiga/soat o‘lchovida):

Videokamera – 8–10

Komputer montaj apparati – 6–10

Ko‘rsatuv strukturasi:

Har bir ko‘rsatuv alohida bir mavzuga oid bo‘lib, ko‘rsatuv tarkibiga kiruvchi sahifalar orqali har bir ish o‘z kasb ustasi tomonidan bajarilishi kerakligi tushuntirib boriladi. Undan tashqari, agarda kimda-kim bu ishlarni o‘zi amalga oshirish ishtyoqida bo‘lsa, buning uchun, avvalo, chuqur bilim va amaliyot talab qilinishi yaqqol ko‘rsatiladi.

10 kunda 1 marta tasvirga olinadigan ko‘rsatuv birnechta sahifani o‘z ichiga oladi. Ular quyidagilardan iborat:

«**Ko‘z – qo‘rqoq qo‘l – botir**» – ishlab chikarish bilan shug‘ullanuvchi kompaniya xodimini o‘rnida boshlovchi u yoki bu mahsulotni o‘z qo‘llari bilan amalga oshiradi. Bundan tashqari kompaniya faoliyati va ishlab chiqaruvchi mahsuloti haqida ma‘lumot taqdim etiladi. (10–12 daqiqa)

«**Aralash-quralash**» – turli yo‘nalish bo‘yicha boshlovchi o‘z kuchi va imkoniyatlarini sinab ko‘radi. Bundan tashqari tanlangan yo‘nalish bo‘yicha ma‘lumot taqdim etiladi. (10–12 daqiqa)

«**Xizmatgizdamiz**» – aholiga xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kompaniya xodimi o‘rnida boshlovchi u yoki bu xizmat turi amalga oshiradi. Bundan tashqari kompaniya faoliyati va shu xizmat turi haqida ma‘lumot taqdim etiladi. (10–12 daqiqa)

Ko‘rsatuv sunggida keyingi dastur bilan tanishtiriladi.

GLOSSARIY

Mavzu – ssenariyda nima haqida hikoya qilinishi.

G'oya – muallifning (o'z asarida) tasvirlangan voqealar va qahramonlarga qarashi, ya'ni syujetda ifodalangan narsalarga munosabati.

Kompozitsiya – asardagi unsur (element)larning bir-biriga muvofiq kelishi, ya'ni kadrda aks etgan narsalarning ma'lum bir maznun-ma'no kasb etishi.

Hodisa (situatsiya) – konfliktlar (qarama-qarshiliklar) bilan to'lib-toshgan asardagi bir-biri bilan kurashuvchi kuchlarning munosabati.

Konflikt (qarama-qarshilik) – bir-biriga qarshi shaxslarning tashqi va ichki harakatlari.

Syujet – xarakterlar va stillarning aloqalari va qarama-qarshiliklarini, tarixini va cheklanganliklarini, xush ko'radigan va yoqtirmaydigan jihatlarini ifodalaydi.

Ekspozitsiya – voqeaning qayerda, qachon, kimlar ishtirokida bo'lib o'tishi: a) ekspozitsiya – to'xtab qolgan yoki sekinlashtirilgan holatda bo'lishi (N. Gogolning «Revizor» pyesasidagi muqaddimani eslang); b) ochiq holatda (voqealar shiddat bilan boshlanishi); d) yoyilgan ekspozitsiya – xarakterga o'xshab namoyon bo'lishi mumkin – paydo bo'ladi – yo'qoladi.

Tugun – vujudga kelgan tengvaznlilik, muvozanatning buzilishi. Uning oqibatida turli voqealar kelib chiqadi, personajlar o'rtasidagi munosabatlar o'zgaradi. Muvozanatning buzilishi – o'zingizga tanish bo'lgan holatlarni endi boshqacha, yangilangan tarzda qabul qila olishingiz.

Harakatlarning rivojlanishi (yechim) – konfliktning murakkablashuvi, chuqurlashuvi. Shu paytda kadrda ikkinchi bir syujet voqealari (qo'shimcha voqealar tasvirlanishi mumkin. Syujet yangicha tus ola boshlaydi, yangicha munosabatlar, o'lchovlar

paydo bo‘ladi. Personajlarni u yoki bu yo‘lni tanlashga undaydigan (noma’lumliklar bilan o‘ralgan) hatti-harakatlari paydo bo‘ladi.

Kulminatsiya – harakatlar, kurashlarning eng avj olgan nuqtasi. Voqealarda statik (muvozanat, turg‘un) holat paydo bo‘ladi – kurashayotgan noma’lumliklar ichida qarama-qarshi tomonga – yechim tomonga o‘ta boshlaydi. Ikkinchi darajali voqealar tizimi (strukturasi) yangi, kutilmagan shakllarda namoyon bo‘la boshlagan paytda kulminatsiyaning avj nuqtasi paydo bo‘ladi. Shunga ko‘ra, kulminatsiyaning ikki xil ko‘rinishi ishga tushadi:

1. Asosiy, yashirin (to‘planayotgan) ko‘rinish.
2. Qisqa tutashuvlardan iborat kulminatsiya.

Kulminatsiya voqealarni yangicha tarzda, boyitilgan, to‘yintirilgan rakursda, konfliktli voqealar o‘z yechimini topgan vaziyatlar orqali namoyon bo‘lishini taqozo etadi.

Yechim (final) – konfliktli vaziyatlarning hal bo‘lishi. U ijodkor tasavvurida bir nechta syujet strukturasi orqali, namoyish qilinadigan va kadr ortida qolib ketgan voqealar xarakteridan kelib chiqqan holda namoyon bo‘ladi.

Xarakter – shaxsiy xatti-harakat, xulq-atvorlarning yoritilish jarayonida, filmni montaj qilishda namoyon bo‘ladigan jihat (birlik ta‘rifi).

Situatsiya (vaziyat) – o‘zidan chiqish holati. Qahramon endilikda eskicha yashayolmay qoladi. Masalan: er bir piyola choy iltimos qiladi, xotin piyolani devorga otib sindiradi.

Istak (xohish) – asarda qahramonning turli xil to‘qnashuvlaridan kelib chiqadi. Asar xarakteri va kompozitsiyasiga ko‘ra paydo bo‘ladigan istak (xohish)larning bir necha turi (tipi) mavjud:

1. Qahramon o‘zi nima istayotganini biladi va hatto qonli to‘qnashuvlar orqali bo‘lsa ham, o‘z maqsadiga erishishni istab qoladi.

2. Ma‘lum vaziyatlardan kelib chiqib namoyon bo‘ladigan xarakterlar.

3. Ijobiy ham, salbiy ham bo‘lmagan (2–3) xil jihatlarni o‘zida jamlagan xarakterlar qarama-qarshiligi.

4. Turli xil o‘zgarish va burilish nuqtalarida namoyon bo‘ladigan xarakter.

5. Niqob – komik holatlardagi, fojeaviy holatlardagi yoki shartli holatlardagi niqob.

Muqaddima (prolog) – asar voqealariga ochilgan eshik. Asosiy voqealar bo‘lib o‘tadigan vaziyat, muhit tanishtiriladi.

Xotima (epilog) – ma‘lum bir vaqt o‘tgandan keyin qahramonlar hayotida nima o‘zgarganligini bayon qiluvchi qism.

Syujet – muallif g‘oyalarining, dunyoqarashining, u ko‘zda tutgan xarakterlarning namoyon bo‘lishini ta‘minlovchi badiiy shakllar tizimi.

Eskiz – ssenariy, mavzu, kompozitsiya, rang va uslubga asoslangan badiiy asardir. Film plastik yechimining asoslari eskizlarga singdiriladi. Rassomlar ijodiy hususiyatlarining o‘ziga xosligiga va ijro texnikalariga qarab farqlanadilar.

Mizansahna –bu rejissor g‘oyasini filmda aktyorlarning tabiiy-organik xatti-harakatlari orqali plastik va makon nuqtayi nazaridan hal qilishdir.

Rakurs – buyum va odamning har xil tomondan ko‘rinishi.

Dialog. Ekranida ikki yoki undan ortiq kishi suhbat. O‘yin sahnasida intervyu, suhbat yoki luqma.

Muallif matni. Uni yana suxandon matni yoki muallif sharhi deb ham yuritiladi. Ba‘zan ko‘rsatuv yoki film kadr ortidan bir qahramonning sharxi bilan yuritiladi. Ba‘zi hollarda sharx bir nechta ovozlari bilan yuritilishi mumkin.

Kadr orti monologi yoki dialogi. Bunday rejissorlik to‘xtami tomoshabin qahramonlarni ko‘rmasdan, faqat ularning ovozini eshitayotgan holatda ro‘y beradi. Ular sharx singari voqea rivojini kuzatib boradi, ular bu voqealarda ayni paytda yoki ilgari qatnashgan bo‘lishi mumkin.

Ichki monolog. Ko‘pincha, so‘z ochiq talaffuz qilinmaydi, biz o‘zimizcha fikr yuritamiz. Ichki monologning bu ko‘rinishi aynan shu holatni vujudga keltiradi. Kadrda qahramon og‘zini ochmay, talaffuz qilmay harakatda bo‘ladi, ammo bu paytda uning ovozi kadr ortidan keladi, u luqma tashlaydi, o‘z-o‘zi yoki hayoliy raqibi bilan suhbatlashadi.

Kadrdagi musiqa. Ekranida musiqani paydo bo‘lish sababi va manbasini ko‘rgan paytimizda u mana shu toifaga mansub bo‘ladi. Bu ayni paytda kadrda kuy ijro etayotgan orkestr, rekvizit sifatida sahna harakatini rivojlantirishida ishtirok etayotgan magnitola, qahramonda mavjud bo‘lgan radiopriyomnik va hatto pleer naushniklari bo‘lishi mumkin. Hamma kadrlarda ham orkestr yoki musiqachilar albatta bo‘lishi shart emas. Tasvir montaji ketma-ketligida ular bir martagina ko‘rsatilishi mumkin, eng muhimi tomoshabin musiqa manbasi nima ekanligini bilsa bo‘ldi. Tomoshabin radiopriyomnik yoki magnitola harakat sodir bo‘layotgan joyda ekanligi va aynan o‘shalar ovozi taratayotganligini biladi.

Kadr orti musiqasi. Bunday musiqani tanlash muallif niyatiga bog‘liq va u turli dramaturgik vazifalarni bajarishi mumkin. U muallifga tegishli bo‘lib, uning (rejissorning) ro‘y berayotgan voqeaga munosabatini bildirishi mumkin. Musiqa, shuningdek u qahramon hissiyotlari ifodasi bo‘lishi mumkin. Tomoshabinda ma‘lum bir kayfiyat uyg‘otadi va yana bir qancha rejissorlik niyatlarini amalga oshiradi. Ekrandagi musiqa haqida ko‘plab kitoblar yozilgan. Bu alohida kattagina mavzu hisoblanadi.

Sinxron shovqinlar. Shovqinlarning bu turi nomining o‘zi ham ularning asosiy xususiyatini belgilab turibdi. Ammo ularni boshqacha ta‘riflash ham mumkin. Ko‘proq ularga yakka yoki takror, ammo uzuq-yuluq ovozi bo‘lgan shovqinlar kiradi. Xususan, avtomobil eshigining yopilishi, odamning oyoq tovushi, suv to‘lqinlarining qirg‘oqqa urilishi, bolg‘a taqillashi, ot dupuri

va boshqalar shular jumlasidandir. Bunda tomoshabin ovoz manbasini albatta ko‘rib turadi.

Fon shovqinlari. Odatda, aniq to‘lqini bo‘lmagan uzluksiz yoki davomli tovushlarni shunday nomlanadi. Agar, hattoki, manba aniq bo‘lsa ham, kadrda ovozni bu manbaning aniq harakati bilan bog‘lab bo‘lmasa, bunday shovqinlarni ham fon shovqini deyish mumkin.

Pauza. Qizig‘i shundaki, bu ham mikrofondan yozib olingan jimlikdir. Ammo, pauza haqida barcha ovozlarni bir plyonkada tayyorlash texnologiyasini ko‘rib chiqishda so‘z yuritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *M. Mahammetov*. «Rejissura asoslari». – T., 2008.
2. «Жанры телевидения». Комитет по радиовещанию и телевидению. – М., 1967.
3. *M. Aliev*. «Kino asoslari». – T.: «O‘qituvchi» nashriyoti 1993.
4. *M. Mahammetov, F. Fayziyeva*. «Televideniye asoslari». – T., 2009.
5. *X. Abulkasimova*. «Kino asoslari». O‘quv qo‘llanma, 2007.
6. *Sokolov*. «Montaj».
7. *Хю Бедли*. «Техника документального кинофильма». – М., 1972.
8. М. «Jurnalistika va publitsistika». – T., 2008.
9. *A.K. Nosirova*. «Montaj asoslari». – T., 2011.
10. *F. Ro‘ziyev, X. Jo‘rayeva*. «Telejurnalistga tavsiyalar». – T.: «Sharq», 2013.
11. *A. Qurbonov*. «Radiorejissura olami». «Nasaf», 2013.
12. *Sh.S. Esanboyeva*. «Televizion rejissura asoslari». «Faylasuflar», 2014.

MUNDARIJA

Kirish	3
Televideniye san'atining paydo bo'lish tarixi	5
Televideniye ning reproductiv funksiyalari va uning xususiyatlari	8
Radio – OAVlardan biri sifatida	12
Toshkent Radioeshittirish uyining tarixi	14
O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi faoliyati	18
Televideniye rejissori	23
Rejissorlik qobiliyatini tarbiyalash	30
Televideniye da tasvirchi va uning vazifalari	34
Yoritish rejissurasi	37
Rejissor va rassom mahorati	42
Musiqa va surat	45
Mikrofonlar	48
Televizion ko'rsatuvlarning ta'sirchanligini aniqlashda baho mezonlari	54
Axborot janrlari	56
Televideniye dasturlarida publitsistik ko'rsatuvlarni tashkil qilish	60
Teleseriallar va ularning rejissurasi	67
Rejissorning badiiy asar ustida ishlash jarayoni	73
Rejissorlik ssenariysi	79
Televizion ko'rsatuvlar ssenariysidan lavhalar	83
Glossariy	89
Foydalanilgan adabiyotlar	94

M 32 Televideniye va radio rejissurasi [Matn]: o'quv
qo'llanma/. M. Maxametov [va boshq.]. – Toshkent:
Niso-Polifraf, 2017. – 96-b.

ISBN 978-9943-4869-0-4

UO'K 654.1
KBK 76.03

O'quv nashri

Mahkam Maxammetov, Shoira Atamuradova

TELEVIDENIYE VA RADIO REJISSURASI

O'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir *M. Po'latov*

Rasmlar muharriri *J. Gurova*

Texnik muharrir *D. Salixova*

Kompyuterda tayyorlovchi *T. Abkerimov*

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,

Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Litsenziya raqami AI №265.24.04.2015.

Bosishga 2017-yil 10-noyabrda ruxsat etildi. Bichimi $60 \times 84 \frac{1}{16}$. Ofset qog'ozi.

«Times New Roman» garniturasida. Kegli 12,5. Shartli bosma tabog'i 6,0.

Nashr tabog'i 5,58. Adadi 68 nusxa. 616-sonli buyurtma.

«NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,

Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.